


2022

Hot Potatoes dasturi yordamida interfaol mashqlar yaratish



O.Q. Xatamov

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

Termiz davlat universiteti

O.Q. Xatamov

Hot Potatoes dasturi yordamida interfaol mashqlar yaratish

(Uslubiy qo'llanma)

Termiz – 2022

Ushbu uslubiy qo'llanma universitet Ilmiy kengashining _____ yil "____"
_____ bo'lib o'tgan № _____ – sonli yig'ilishida ko'rib chiqildi va
nashrga tavsiya etildi.

Mualliflar: O. Xatamov

Ma'sul muharrir: Termiz davlat universiteti, "Amaliy matematika va
informatika" kafedrası mudiri, fizika-matematika fanlari
doktori, professor **Ch.B. Normurodov**

Taqrizchilar: Termiz davlat pedagogika instituti, "Informatika va uni
o'qitish metodikasi" kafedrası mudiri, fizika-matematika
fanlari nomzodi, dotsent **E.Ch.Xoliyarov**
Termiz davlat universiteti "Axborot texnologiyalar
markazi" boshlig'i **X. Choriyev**

"Hot Potatoes dasturi yordamida interfaol mashqlar yaratish" Uslubiy
qo'llanma / O. Xatamov – Termiz: _____, 2022. – 74 b.

Ushbu uslubiy qo'llanma akademik litsey, kasb-hunar maktablari, kollejlari,
texnikumlar, oliy o'quv yurtlarining barcha ta'lim yo'nalishlari talabalari,
o'qituvchilari hamda mustaqil o'rganuvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, bugungi
kunning dolzarb mavzularidan sanalmish zamonaviy axborot texnologiyalari
yordamida interfaol mashqlar yaratishga bag'ishlangan. "Hot Potatoes dasturi
yordamida interfaol mashqlar yaratish" nomli qo'llanma mustaqil o'zlashtirilishi
lozim bo'lgan tayanch ma'lumotlar bilan to'ldirilgan.

Uslubiy qo'llanmadagi bajarilishi lozim bo'lgan mashqlar ketma-ketligi aniq
tajribalarga asoslanilgan holda bayon etilgan.

Kirish

O'quv va o'qitish jarayonining ilg'or usullari muhim tarkibiy qismlaridan biri testlar orqali amalga oshiriladigan nazorat hisoblanadi. Testlar "o'lchov asbobi" sifatida dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida qo'llaniladi. Ularni yaratish va foydalanish ko'pgina nazariyalarga asoslangan bo'lib, juda ko'p tadqiqotlarda o'z tasdig'ini to'pgan.

Bilimni testlar yordamida nazorat qilish o'qituvchi va tahsil oluvchilarning o'zaro teskari aloqasini ta'minlaydi. Testning eng muhim vazifasi tahsil oluvchilar bilimining xolisona bahosini aniqlashdir.

Testlar yordamida bilimni nazorat qilish, faqat o'quvchining o'zlashtirish darajasini belgilash bilan chegaralanib qolmay, o'qish jarayonini rag'batlantirishda muhim pedagogik vosita va ijobiy motiv uyg'otishga kuchli ta'sir etadi. O'quvchida adekvat ravishda o'z-o'zini baholash imkoni tug'iladi va o'z muvaffaqiyatlariga tanqidiy munosabat shakllanish qayd etiladi.

Kompyuter testlari nafaqat informatika fani o'qituvchilarida, balki boshqa fanlar o'qituvchilarida ham qiziqish uyg'otadi. Ammo, hamma o'qituvchilar ham dasturlash vositalari yordamida mustaqil testlar yaratish bo'yicha yetarli bilim va malakaga ega emaslar.

Shu tufayli mualliflar ushbu risolada o'qituvchilarga, bo'lajak pedagoglarga test yaratishning eng sodda varianti ya'ni bilimlarni mustahkamlovchi test, interaktiv mashqlar yaratish bo'yicha uslubiy tavsiya beradilar.

Bilimlarni mustahkamlovchi interaktiv mashqlar (testlarning turli xil variantlarini) yaratish uchun Hot Potatoes qobiq dasturidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Hot Potatoes – dasturlash tillari bo'yicha yetarli bilim, malakaga ega bo'lmagan o'qituvchilarni va dasturlash sohasi mutaxassislarini jalb etuvchi, mustaqil tarzda interfaol mashqlar yaratishga imkon beruvchi instrumental qobiq dastur hisoblanadi.

Muallif tomonidan tayyorlangan ushbu uslubiy qo'llanma nafaqat o'qituvchilarga, balki, akademik litsey, kasb-hunar maktablari, kollejlari, texnikumlar hamda oliy o'quv yurtlarining barcha ta'lim yo'nalishlari talabalariga zamonaviy texnologiyalarning sir-asrorlarini o'rganishda tayanch ma'lumotlarni beradi.

Mazkur uslubiy qo'llanmani yaratishda ko'p yillik ilmiy-pedagogik tajribalar hamda yangi pedagogik texnologiyalarning yangi ilg'or ta'limotlariga asoslanildi.

1. Dastur haqida umumiy ma'lumotlar

1.1. Dastur haqida

Hot Potatoes – dasturlash tillari bo'yicha yetarli bilim, malakaga ega bo'lmagan o'qituvchilarni va dasturlash sohasi mutaxassislarini jalb etuvchi, mustaqil tarzda interaktiv mashqlar yaratishga imkon beruvchi instrumental qobiq dastur hisoblanadi.

Bu dastur yordamida faqatgina informatika va axborot texnologiyalari sohasiga oid fanlardan emas, balki har qanday (boshqa sohaga oid) fanlar uchun ham matnli, ham grafik, hamda audio- va video axborotli 10 xildagi mashqlarni turli tillarda yaratish mumkin.

Dasturning o'ziga xos jihati shundaki, yaratilgan mashqlar veb-sahifalarni standart formatida saqlanadi. Bu esa o'z navbatida talabalar uchun juda qo'l keladi, shu ma'noda-ki, ularga mashqlarni bajarish uchun faqatgina veb-brauzer (masalan: Internet Explorer, Xrom, Opera va boshqalar) bo'lsa etarli. Talabalarga Hot Potatoes dasturi kerak bo'lmaydi. Hot Potatoes dasturi faqat o'qituvchi uchun kerak bo'ladi, chunki u bu dastur yordamida mashqlarni yaratadi va joiz bo'lsa, yaratilgan mashqlarni tahrirlaydi.

Butun dunyo ta'lim muassasalari turli yo'nalishdagi fanlarni o'rganish uchun Hot Potatoes dasturidan keng ko'lamda foydalanadi.

1.2. Dastur mualliflari

Dastur 1997-2003 yillarda Kanada shtatining Viktoriya universiteti «Gumanitar ta'limda» axborot texnologiyalari markazida ishlab chiqilgan. (<http://web.uvic.ca/hcmc>).

Dastur mualliflari:

1. Stewart Arneil – «HTML, JavaScript, программирование для Macintosh»
2. Martin Holmes – «HTML, JavaScript, программирование для Windows»

(<http://www.mholmes.com>)

3. Hilary Street («Interdesign Media» kompaniyasi) – grafika.

Martin Holmes dasturning 2003 yil oktyabr oyida chiqqan oxirgi 6 – versiyasi muallifi hisoblanadi.

1.3. Dasturning asosiy bo'limlari

Dasturda asosiy 5 ta bo'lim mavjud bo'lib, ular yordamida mashqlar yaratiladi (har bir bo'limni alohida dastur sifatida ham qabul qilish mumkin):

1. JQuiz – Viktorina (savol-javob o'yini) – savolga bir necha javob tanlash (4 turdagi topshiriqlar (vazifa) mavjud).

2. JCloze – Bo'shliqlarni (tushirib qoldirilgan so'zlarni, harflarni, sonlarni, sanalarni) to'ldirish.

3. JMatch – Muvofiqlikni (moslikni, munosiblikni) aniqlash (topish) (3 turdagi topshiriqlar (vazifa) mavjud).

4. JCross – Krossvord (topishmoqning bir turi: kataklarni harflar bilan to'ldirib, yashirilgan so'zlarni topish).

5. JMix – Ketma-ketlikni tiklash.

Hamma mashqlar o'rganish (mashq qilish) tartibida bajariladi (faqat «test» - (aqliy taraqqiyotni aniqlash maqsadida ishlatiladigan topshiriq) tartibi savolga ko'p javob tanlash uchun mo'ljallangan). Topshiriqlarni bajarish natijasi foizlarda baholanadi. Muvaffaqiyatsiz urinishlar esa bahoning pasayishiga olib keladi.

Shuningdek, dasturning oltinchi versiyasiga, qolgan versiyalaridan farqli ravishda, qo'shimcha Masher (Инструменты) bo'limi qo'shilgan bo'lib, ushbu bo'lim yuqorida ta'kidlab o'tilgan barcha bo'limlarni (JQuiz, JCloze, JMatch, JCross, JMix) mauzuga oid bitta umumiy bo'limga, ya'ni biror bir mavzuga, darsga va o'quv kursiga bag'ishlangan bo'limga birlashtiradi.

1.4. Dasturdan foydalanish shartlari

Dastur pulli va pulsiz (ma'lum bir shartlarga rioya qilgan holda) variantlarda taqdim etiladi.

Pulsiz – dasturdan tijoratga bog'liq bo'lmagan davlat tasarrufidagi ta'lim muassasalari foydalanishi mumkin, qachon-ki quyidagi shartlarga amal qilinsa: Hot Potatoes dasturi yordamida yaratilgan materiallar Internetga joylashtirilsa; Internetga joylashtirilgan materiallardan foydalanuvchilar cheklanmagan tarzda erkin foydalansa.

Dasturning Masher (Инструменты) bo'limi pulli variantga mansubdir. Chunki u dasturdan bo'lak ravishda alohida sotib olinadi va ro'yxatdan o'tkaziladi.

1.5. Texnik va dasturiy talablar

Windows muhitida mashqlar yaratish uchun quyidagilar zarur:

- Operatsion tizimning Windows 98, ME, NT4, 2000 va XP versiyalari;

* *Topshiriq konfiguratsiyalarini o'zgartirish uchun hujjatni gipermatnli hoshiyalash tillari (HTML) va JavaScript to'g'risidagi bilimlar katta imkoniyatlar beradi, ammo mashqlar yaratish uchun majburiy talablar qo'yilmaydi, u faqat kompyuter texnologiyalari sohasida ilgarilab ketgan mutaxassis foydalanuvchilarga (For Power Users) «Для продвинутых пользователей» xos bo'lgan bo'limiga qarang.*

- veb-brauzerlarning oxirgi versiyalaridan biri Internet Explorer 6+, Netscape 7+, Mozilla 1.4+, FireBird 0.7. va boshqalar.

- server (agar siz yaratgan mashqlaringiz Internetda joylanishini xohlasangiz) yoki www.hotpotatoes.net saytiga dastur yordamida yaratgan topshiriqlarni joylashtirish uchun Internetga «kirish huquqi». (www.hotpotatoes.net saytiga joylashtirish shartlari «General Introduction and help» (Kirish) «dastur bilan ishlash haqida ma'lumotnoma» bo'limida taqdim etiladi).


Talabalarning ishlashi uchun faqatgina veb-brauzer bo'lsa etarli. Dasturning o'zi esa talabalarga kerak bo'lmaydi.

1.6. Dasturni o'rnatish

Dasturni <http://web.uvic.ca/hrd/hotpot> saytining bosh sahifasidan nusxasini olish mumkin.




Downloads bo'limidagi Hot Potatoes for Windows 98/ME/NT4/2000/XP (version 6.0.3, self-extracting, auto-installing zip file) havolasiga murojaat qilinganda, dastur 3 ta faylni o'zida mujassamlagan Hotpot 6.0 papkasiga nusxalanadi.



Dasturni o'rnatish uchun setup faylini (sichqoncha chap tugmasini ikki marta chertish orqali) ishga tushirish va o'rnatish bo'yicha yo'riqnomaga amal qilish kerak. Dastur o'rnatilish jarayonida hamma fayllar dastur papkasiga nusxalanadi. Tizim darajasida hech qanday o'rnatilish kuzatilmaydi.

Dasturni o'chirish uchun dasturlarni kompyuter xotirasidan o'chirish standart jarayonidan foydalaniladi. Buning uchun: (Пуск – Настройка - Панель управления – Установка и удаление программ) amallari bajariladi. So'ngra o'chirilishi lozim bo'lgan Hot Potatoes v 6.3.0.5. dasturi belgilanib, «Удалить» tugmasi bosiladi.



1.7. Dasturni ro'yxatga olish

Dasturning ro'yxatga olinishi pulsizdir.

Dasturning ro'yxatga olinmagan nusxasidan foydalanilganda, siz uning imkoniyatlari cheklanganligiga guvoh bo'lasiz (masalan: ikkita savoldan ortmagan mashq yaratasiz, ya'ni mashqdagi savollar soni ikkitadan oshmaydi va hokazo);

Dasturning ro'yxatga olingan nusxasi esa (Masher (Инструменты) bo'limidan tashqari) quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- dasturning barcha funktsiyalaridan foydalanish;
- o'z vaqtida dasturning yangi versiyalari haqida qo'shimcha axborotlar olib turish (elektron pochtagizga xabar kelib turadi).

Dasturni saytning «регистрация» sahifasida ro'yxatdan o'tkazish mumkin. «Регистрация» sahifasiga hammaga ma'lum bo'lgan, keng tarqalgan usul orqali chiqish mumkin.

1. Dastur saytining bosh sahifasidan;
2. <http://web.uvic.ca/hrd/hotpot/register.htm> manzili orqali;
3. Dasturni kompyuterga o'rnatgandan so'ng – asosiy bosh menyudan.

Buning uchun quyidagi amallarni bajarish lozim:

- dasturni ishga tushirish (Пуск – Все программы – Hot Potatoes);
- menyu bandidan «Help» (Справка)ni so'ngra «Register» (Регистрация) qism bandini tanlash;
- «Register» (Регистрация) muloqot oynasidan «Get a key» (Получить регистрационный код) tugmasini tanlash;

* Agar bitta kompyuterda dastur bilan bir necha foydalanuvchi ishlashi kerak bo'lsa, «I am a network administrator ...» (Регистрация всех пользователей данного компьютера) xabari yonidagi kvadratchaga nishon o'rnatilishi lozim (ya'ni, sichqoncha chap tugmasini bo'sh kvadratcha ustiga chertish lozim. Bo'sh kvadratchada belgi hosil bo'ladi.)



- saytda ro'yxatdan o'tish blankini to'ldirish (bu orqali, siz litsenzion kelishuv shartini o'qigan, o'qimaganligingiz tekshiriladi).

* Agar siz dastur haqida qo'shimcha axborot olib turishni xoxlasangiz, unda blankaning tegishli bandiga nishon qo'ying.

Elektron pochta orqali «foydalanuvchi nomi» va «ro'yxatdan o'tish kodi» olingandan so'ng quyidagi amallarni bajarish darkor:

- dasturni ishga tushirish;
- menyudan «Help» (Справка) bandini, so'ngra «Register» (Регистрация) qism bandini tanlash («Register» (Регистрация) muloqot oynasi ochiladi);
- «Register» (Регистрация) muloqot oynasida «foydalanuvchi nomi» va «ro'yxatdan o'tish kodi»ni kiritish.

Ro'yxatdan o'tgandan keyin menyuning «Help» (Справка) bandidan «Register» (Регистрация) qism bandi yo'qoladi (dasturni ishga tushirib, ishlash jarayonida bu band takror va takror ekranga chiqayvermaydi), «About» (О программе) qism bandida esa, dastur kimning nomiga qayd etilgan bo'lsa, o'sha foydalanuvchining nomi («foydalanuvchi nomi») ko'rsatiladi.


1.8. Dastur bilan ishlash bo'yicha interaktiv darslik

Kim-ki, dastur bilan ishlashga birinchi marta kirishgan bo'lsa, undan foydalanishni nimadan boshlashni bilmasa va bu dastur to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'lmasa, dastur mualliflari tomonidan ingliz tilida interaktiv darslik ishlab chiqilgan bo'lib, ular uchun bu darslik mashqlar yaratishni o'rganish, dasturdan to'g'ri foydalanish uchun keng imkoniyatlar ochadi.

Interaktiv darslikda ishlash jarayonida quyidagi vazifalarni bajarish mumkin:

- darslikka dastur yordamida yaratilgan mashqlar joylashtirilgan bo'lib, foydalanuvchi ularni bajarib ko'rishi;

- mustaqil ravishda topshiriqlarni yaratib ko'rishi;
- mashqlarni yaratilish jarayoni bilan tanishishi va yaratishi (cheklanmagan tarzda bu mashqlarni yaratishi);
- mashqlarni yaratilish jarayonini tahlil qilishi va hokazo.



Interaktiv darslik ikki usulda ishga tushirilishi mumkin:

1. bosh menyudan (Пуск – Все программы – Hot Potatoes 6 – HotPotatoes Tutorial) amallarini bajarish orqali;
2. Hot Potatoes dasturi ishga tushgandan keyin, menyudan «Help» (Справка) bandini, so'ngra «Tutorial» (Учебник) qism bandini tanlash orqali.

1.9. Turli tillarning ishlatilishi (Turli tillardan foydalanish)

Mashqlar tili – Yunikod standarti asosida qo'llab-quvvatlanib turiladigan, har qaysi (mashq matnlari, topshiriq va teskari aloqa ta'riflari).


Dasturning 6 chi versiyasidagi rus tili Windows 2000 va Windows XP operatsion tizimlari tomonidan quvvatlanadi.

Dasturning interfeys tili jahon standartiga mos ravishda ingliz tilida. Boshqa tilni o'rnatish:


- dasturga birinchi marta murojaat qilinganda; yoki
- xohlagan vaqtda interfeysni zaruriy tilga o'girish faylini ochish orqali (ya'ni menyu qatoridan «Options» (Настройки) bandini - «Interface» qism bandini, so'ngra – «Load interface file» (Загрузить файл интерфейса) bo'limini tanlash lozim) amalga oshiriladi.

* «Load interface file» muloqot oynasidan siz zarur bo'lgan tilni tanlab «Open» (Открыть) tugmasiga sichqoncha chap tugmasini cherting. Ochilgan «Confirm» xabar oynasidagi «Would you like to use this interface file for all the applications this suite?» (Вы хотели бы использовать этот файл интерфейса для всех приложений этой программы?) savolga «Yes» (Да) tugmasini bosish orqali javob bering. Shunda yana bir «Information» xabar oynasi ochiladi. Undagi «You will need to restart any other applications that are currently running to show


the new interface» (Перезапустите все открытые приложения Hot Potatoes для того чтобы изменения интерфейса вступили в силу) xabarini qo'llab-quvvatlash uchun «Yes» tugmasini bosning. Dasturni qayta yuklang va siz dastur interfeys tili o'zgarganligiga guvoh bo'lasiz.




«Load interface file» muloqot oynasini ishga tushirish



«Load interface file» muloqot oynasi



«Confirm» xabar oynasi



«Information» xabar oynasi

Interfeysning dastlabki tilini (ingliz tilini) tiklash, menyu qatoridan «Options» (Настройки) bandini - «Interface» qism bandini, so'ngra – «Reset Default Interface» (Восстановить первоначальный язык интерфейса) bo'limini tanlash orqali amalga oshiriladi.



Shuningdek, interfeysni o'ziga tegishli ilovalarini, bandlarini boshqa, zaruriy tilga o'girish mumkin. Buning uchun «Translate the interface» (Перевести интерфейс) muloqot oynasini ochish kerak bo'ladi. Muloqot oynasini ochish esa o'z navbatida, menyu qatoridan «Options» (Настройки) bandini - «Interface» qism bandini, so'ngra – «Translate the interface» (Перевести интерфейс) bo'limini tanlash va tanlanganlarga sichqoncha chap tugmasini chertish orqali amalga oshiriladi.

Ochilgan muloqot oynasidan zaruriy ilovalar, bandlar tanlanib tarjima qilinadi.

* *Interfeysni tarjima qilish to'g'risida to'liq ma'lumotni «Для продвинутых пользователей» bo'limidagi dastur bilan ishlash ma'lumotnomasidan olish mumkin.*

Dastur mualliflari hozirgi kunda dasturning ettinchi versiyasida interfeys tili sozlovlari imkoniyatlarini rejalashtirmoqda.

2. Mashqlarni yaratish

Asosiy bosqichlar

Uskunalar panelidagi tugmachalarning vazifalari

2.1. Ma'lumotlarni kiritish

2.2. Konfiguratsiyalarni sozlash

Topshiriqlarni rasmiylashtirishy

Taymerni sozlash

2.3. Mashqlar veb-sahifasiga ma'lumotlarni akslantirish va mashqlar faylini saqlash

2.4. Ma'lumotlarni dastlabki faylini saqlash

2.5. Mashqlarni chop etish

2.6. Mashqlarni darslarga va mavzuiy bo'limlarga birlashtirish

Asosiy bosqichlar

Mashqlarni yaratish bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Ma'lumotlarni kiritish;

2. Mashqlar konfiguratsiyalarini sozlash (*konfiguratsiyalarni sozlash to'g'risida batafsil ma'lumot olish uchun 2.2. bo'limga qarang*);

3. Foydalanuvchilarni, tahsil oluvchilarni topshiriqlarni bajarishlari ya'ni tayyor bo'lgan mashqlarda o'z bilimlarini mustahkamlash va o'zlarini sinab ko'rishlari, ishlashlari uchun mashqlardagi ma'lumotlarni veb-sahifa formatiga (HTML) aks ettirish;

4. Dasturning konkret bo'limi formatida mashqlarni saqlash (*o'zgartirishlar kiritish imkoni uchun*).

Bundan tashqari, yaratilgan mashq va javoblarni

• chop etish (*mashqlarni chop etish to'g'risida batafsil ma'lumot olish uchun 2.5. va 3.4. bo'limlariga qarang*);

• darslarga va mavzuiy bo'limlarga birlashtirish (*mashqlarni birlashtirish to'g'risida batafsil ma'lumot olish uchun 2.6. va 5 bo'limlariga qarang*).

Uskunalar panelidagi tugmalarning vazifalari


Dastur menyusining turli bandlarida keltirilgan uskunalar panelidagi tugmalar mashqlar yaratishning asosiy operatsiyalariga tezkor o'tishni amalga oshirish imkoniyatini beradi. Bular:

1. Mashqlar matnini tahrirlash – «Edit» (Правка) – standart tugmalar: «Cut» (Вырезать), «Copy» (Копировать), «Paste» (Вставить), «Delete» (Удалить);

2. Mashqlar konfiguratsiyalarini sozlash– «Options» (Настройки) – «Configure output» (Настройка конфигурации упражнения);

3. Ma'lumotlarni veb-sahifalarga aks ettirish (*mashqlarni saqlash va ko'rib chiqish (Просмотр)*) – «File» (Файл) – «Create Web-page» (Создать веб-страницу) – «Web-page for v6 browsers» («Веб-страницу для браузеров версии 6»);

4. Ma'lumotlar faylini saqlash – «File» (Файл) – «Save» (Сохранить);
5. Dasturdan chiqish «Exit» (Выход), hamda qator qo'shimcha vazifalarga murojaat;
6. Ma'lumotlar faylini boshqa nom bilan saqlash «Save as» (Сохранить как);
7. Mashqqa matnlarni qo'shish «Add reading text» (Включить текст);
8. Tahrirlash uchun mavjud mashqlarning ma'lumotlar faylini ochish «Open» (Открыть);
9. Dasturning mazkur bo'limida yangi mashq yaratish «New» (Создать);
10. Ma'lumotnoma (Справка) – «Help».





* Bundan tashqari, dasturning qator bo'limlarida uskunalar paneliga, faqatgina ma'lum bir tipdagi mashqlarni (masalan, JCrossda krossvord to'rini avtomatik yaratish, JMatch da so'zlarni sichqoncha bilan joyidan ko'chirish orqali topshiriqni bajarish, gipermurojaatlar, rasmlar, ob'ektlar qo'yish va boshqalar) yaratish hamda asosiy operatsiyalariga tezkor o'tish (kirish, murojaat) uchun zarur bo'ladigan boshqa qo'shimcha tugmalar ham chiqariladi.

2.1. Ma'lumotlarni kiritish

Ma'lum bir tipdagi mashqlarni yaratish uchun ma'lumotlarni kiritish zarur bo'ladi va u quyidagi bosqichlarni bajarish orqali amalga oshiriladi:

1. Hot Potatoes dasturini ishga tushirish;
2. Ekranda maxsus belgilar (kartoshka donalari - har bir kartoshka donasi alohida bo'limni tashkil etadi) yordamida yoki menyu qatorining «Potatoes» (Упражнения) bandi orqali dasturning zaruriy bo'limini tanlash;



3. Tanlangan bo'limning ishchi sohasiga mashqlar tiliga oid materialni (masalan: krossvord ishchi sohasiga so'zlar, bo'shliqlarni to'ldirish sohasiga matnlar va hokazo), gipermurojaatlar va illyustrativ materiallarni (tasvir, tovush, video) kiritish. Topshiriq matnlarini klaviatura yordamida yoki tayyor fayllardan nusxa olish orqali kiritish mumkin.

* *Mashqlar matnlarining elektron nusxasi mavjudligi ishni sezilarli darajada tezlashtiradi.*

4. Mashqlar konfiguratsiya sozlashlariga zarurat tug'ilganda o'zgartirishlar kiritish.


! 3 bo'limga e'tibor bersangiz, topshiriqlarning har bir tipi bilan ishlash haqida batafsil ko'rsatmalar keltirilgan.

2.2. Konfiguratsiyani sozlash

Dasturda mashqlar konfiguratsiyasini sozlash imkoniyatlari ko'zda tutilgan bo'lib, u ikki turdagi sozlashlarni o'z ichiga oladi:

- barcha topshiriqlar uchun umumiy bo'lgan sozlashlar;
- har turli mashqlarning o'ziga xos xususiyatlariga aloqador bo'lgan qo'shimcha sozlashlar.

Konfiguratsiyalarni sozlash tartibotiga kirish menyu qatorining «Options» (Настройки) bandini, so'ngra «Configure Output» (Конфигурация упражнения) qism bandini tanlash yoki uskunalar panelidagi mos tugmaga sichqoncha chap tugmasini chertish orqali amalga oshiriladi.





Boshqalariga nisbatan ko'proq qo'llaniladigan barcha topshiriqlar uchun umumiy bo'lgan sozlashlar quyidagilarni o'zgartirish imkonini beradi:

- topshiriqlarga qo'shimcha sarlavhalarni (ikkinchi darajali sarlavha, quyi sarlavha) va ko'rsatmalarni (Title/Instructions bandi);
- yordamchi matnlarni va teskari aloqani (Prompts/Feedback bandi);
- tugmalar nomini va mashqlarda ulardan foydalanish-foydalanmaslikni (Buttons банди);
- topshiriqlarni rasmiylashtirish – shrift, fon rangi, matn va boshqalar (Appearance bandi);
- topshiriq bajarilish vaqtini chegaralaydigan, taymerni o'rnatish (Timer bandi).

Qo'shimcha tuzatishlar, qoidadagidek, «Other» (Другое) bandining oynasida taqdim etilgan.

* «Custom» va «CGI» bandlari yuqori tajribali foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan.



Barcha kiritilayotgan o'zgarishlar shu onning o'zidayoq «Appearance»


O'zgartirilgan konfiguratsiyani faqat shu (mavjud) topshiriq uchun ishlatish

Dasturning boshqa mashqlarida ham, ushbu o'zgartirilgan

Taymerni sozlash.

Mashq bajarilishi vaqtini chegaralash uchun konfiguratsiyalarni sozlash faylida qo'yidagi vazifalarni bajarish zarur:

- «Timer» (Таймер) bandini tanlash;



- «Time limit» (Ограничение времени) bo'limining «Set a time limit for this exercise» (Установить ограничение времени на выполнение данного упражнения) iborasi yonidagi kvadrat katakchaga nishon qo'yish;
- vaqt ko'rsatkichlarini minut va/ yoki sekundlarda kiritish;
- «You time is over» (Ваше время истекло) maydoniga, o'quvchiga topshiriqni bajarishga vaqt qolmaganligi to'g'risida xabar beruvchi jumlani kiritish.


* Agar o'quvchi mashqni bajarishga ajratilgan vaqtda berilgan vazifani ado etolmasa, mashq qayta yuklanadi va dastlabki holatidan boshlab bajariladi.

2.3. Mashqlar veb-sahifasiga ma'lumotlarni aks ettirish va mashqlar faylini saqlash


Kiritilgan ma'lumotlarni (topshiriq va konfiguratsiyalarni sozlash) mashqlar formatiga – veb-sahifaga aks ettirish va saqlash zarur.

Buning uchun menyu qatorining «File» (Файл) bandidagi «Create Web-page» (Создать веб-страницу) qism bandi yoki uskunalar panelidagi mos tugmalar ishlatiladi. (* Bir necha mashqlar formati qayerda ko'zda tutilgan bo'lsa, o'sha joyda menyu bandida va uskunalar panelida mos ravishda qism bandlar paydo bo'ladi.)

Menyu qatorining «File» (Файл) bandidagi «Create Web-page» (Создать веб-страницу) qism bandi tanlanib sichqoncha chap tugmasi chertilgandan keyin, «Save as» (Сохранить как) oynasi paydo bo'ladi. Bu oynada mashqlar fayliga nom va u saqlanadigan papkani tanlash (yoki yaratish) lozim bo'ladi.



* *Fayl nomida imkon qadar mavzu va mashqlarning tartib raqamini ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Oraliqdan (probel, bo'sh joylardan) foydalanish tavsiya etilmaydi, chunki ular ayrim veb-brauzerlar bilan ishlashda noqulayliklarni, muammolarni tug'dirishi mumkin.*




Fayl nomi belgilanib «Save» (Сохранить) tugmasi bosilganda, keyingi harakatlarning 3 xil variantini o'z oynasida aks etgan yana bir «View or upload the exercise» (Просмотреть упражнение или разместить на сайте) muloqot oynasi paydo bo'ladi. Bu variantlar qo'yidagilardan iborat:

- yaratilgan mashqni veb-brauzerda ko'rib chiqish (View the exercise in my browser);
- mashqni **www.hotpotatoes.net** saytiga joylashtirish (Upload the file to the hotpotatoes.net Website);
- hech narsa qilmaslik (Nothing).

Birinchi variant «View the exercise in my browser» (Просмотреть упражнение в веб-браузере) tanlanganda, mashq o'quvchi ishlay oladigan tarzda taqdim etiladi.

Mashqni nafaqat ko'rib chiqish, balki bajarish ham mumkin. Mashqlarni ko'rib chiqish oynasi yopilgandan so'ng ma'lumotlarni kiritishning ishchi ekraniga qaytish ro'y beradi.

Agar mashqni ko'rib chiqqandan so'ng mashqqa qandaydir o'zgartirishlar kiritish lozim bo'lsa, uni faqatgina ma'lumotlar faylida amalga oshirish mumkin. Undan keyin albatta, yana bir bor ma'lumotlarni mashqlarga – veb-sahifa ko'rinishiga aks ettirishingiz va saqlashingiz (oldin yaratilgan mashq faylini almashtirishingiz kerak bo'ladi, ya'ni saqlash mobaynida sizdan «Заменить» almashtirish so'raladi, «Да» tugmasini bosishingiz zarur) shart. Bu jarayon ma'lumotlar fayliga har bir o'zgartirishlar kiritilganda takrorlanadi.



Ikkinchi variant tanlanganda (Mashqni **www.hotpotatoes.net** saytiga joylashtirish) **www.hotpotatoes.net** saytidan foydalanish shartlariga rioya qilish lozim.

Uchinchi variant (Hech narsa qilmaslik) tanlanganda fayl mashqni oldindan ko'rib chiqmasdan (Без предварительного просмотра) saqlanadi va ma'lumotlarni kiritishning ishchi ekraniga qaytish ro'y beradi.

2.4. Ma'lumotlarni dastlabki faylini saqlash

Modomiki, tayyor mashqlarga (veb-sahifalarga) endi o'zgartirishlar kiritish mumkin bo'lmasa, barcha o'zgartirishlar (konfiguratsiya va tilga oid materiallar) ma'lumotlarning dastlabki faylida bajariladi.

Yaratilgan mashqlarni keyinchalik o'zgartirish “mumkin” bo'lishi uchun (tilga oid materiallar va konfiguratsiyalarni tahrirlash), ma'lumotlar faylini saqlash zarur.

Uni quyidagicha amalga oshirish mumkin:

- ma'lumotlar kiritish va konfiguratsiyalarni sozlash ishlari yakunlangandan so'ng;
- yaratilgan veb-sahifani ko'rib chiqqandan (Просмотра) so'ng;

- dasturdan chiqish arafasida.

Ma'lumotlar fayli standart ravishda: menyu qatorining «File» (Файл) bandi, so'ngra «Save» (Сохранить) yoki «Save as» (Сохранить как) qism bandlari, yoki uskunalar panelidagi mos tugmalar yordamida saqlanadi.

Ma'lumotlar fayli dasturning har bir bo'limi (mashqlarning har bir turi) uchun o'zining kengaytmasi va piktogramma (biror narsa ifodalangan simvolik surat) rangiga ega.

* Bitta darsga yoki mavzuiy bo'limga *Masher* (Инструменты) bo'limi yordamida birlashtirilgan mashqlarning ma'lumotlar fayli, dasturning «Инструменты» bo'limi piktogrammasi bilan belgilanadi.

Mashqlar		Piktogramma	Fayl nomi kengaytmasi
JQuiz	Viktorina (savolga bir necha javob tanlash)		*.jqz
JCloze	Bo'shliqlarni to'ldirish		*.jcl
JCross	Krossvord		*.jcw
JMix	Ketma-ketlikni tiklash		*.jmx
JMatch	Muvofiqlikni o'rnatish		*.jmt
Masher	Uskunalar		*.jms

Mashqlar va ma'lumotlar faylida osongina yo'nalishni to'g'ri tanlab ishlash uchun, ma'lumotlar fayli hamda mashqlar fayliga bir xil nom berish va ularni bitta papkada saqlash tavsiya etiladi (*dasturning har bir bo'limi ma'lumotlar fayllari yaratilgan mashqlari bilan alohida papkada, masalan, «Bo'shliqlarni to'ldirish» bo'limiga doir mashqlar va «*.jcl» kengaytmali ma'lumotlar fayllari «JCloze» nomli papkada, «Ketma-ketlikni tiklash» bo'limiga doir mashqlar va «*.jmx» kengaytmali ma'lumotlar fayllari «JMix» nomli papkada, bu papkalarining hammasi esa umumiy «tub» papkada joylansa maqsadga muvofiq bo'ladi*).

2.5. Mashqlarni chop etish

Barcha mashqlarni chop etish mumkin. Mashqlarni ma'lumotlar faylidan chop etishda topshiriqlar javoblari bilan chop etiladi. Bunda barcha topshiriqlar

(krossvorddan tashqari) dastur orqali almashish buferiga (Буфер обмена) nusxalanadi, so'ngra standart usullar bilan matnli hujjatga joylashtiriladi va matn muharriri yordamida chop etiladi.

Krossvord veb-brauzerdan veb-sahifa kabi maxsus chop etish uchun yaratilgandek chop qilinadi (*krossvordlarni chop etish to'g'risida batafsil ma'lumot olish uchun 3.4. bo'limga qarang*).

2.6. Mashqlarni darslar va mavzuiy bo'limlarga birlashtirish


Yaratilgan mashqlarni darslarga, mavzuiy bo'limlarga va dars seriyalariga turli xil usullar orqali birlashtirish mumkin (*batafsil ma'lumot olish uchun 5 bo'limga qarang*). Dasturning «The Masher» (Инструменты) bo'limi buni avtomatik tarzda bajarishga va mashqlarni nafaqat darslarga, balki darslar seriyalariga birlashtirishga, boshqa dasturlar yordamida yaratilgan materiallarni darslarga qo'shishga va materiallarni o'quv kurslariga jipslashtirishga imkon beradi.

3. Mashqlar yaratish bo'yicha tavsiyalar (matnli materiallar asosida)

3.1. Viktorina (JQuiz)


Dasturning ushbu bo'limi yordamida savollar va javoblarni taqdim etishning turli variantlari asosida mashqlar yaratilishi mumkin:

- bir qancha javob variantlaridan bittasi to'g'ri bo'lgan javob - «множественный выбор» (multiple choice);




The screenshot shows a web-based quiz interface. At the top, there are navigation buttons: a left arrow, the text "1 / 4", and a right arrow. To the right of these is a button labeled "Show all questions". Below the navigation bar, the text "This is a multiple-choice question:" is displayed. The question itself is "Which software company publishes Hot Potatoes?". There are four options, each with a radio button (represented by a box with a question mark) and the company name: A. Microsoft, B. Apple, C. Half-Baked Software, and D. Adobe.

- bir necha to'g'ri javoblarni tanlash (multi-select);





The screenshot shows a web-based quiz interface for a multi-select question. The question is numbered "4." and reads "This final question is a multiselect question. Which of the following are Hot Potatoes programs?". There are nine options, each with a checkbox and the program name: a. JCloth, b. JCPenney, c. JQuiz, d. JMix, e. JLo, f. JMatch, g. JCross, h. JCloze, and i. The Masher. At the bottom left of the question area is a button labeled "Check".

- ochiq turdagi qisqa javob (klaviatura yordamida kiritiladi) - «краткий ответ» (short answer);



- «аралаш» - «смешанный» (hybrid) javob varianti – ochiq turdagi javob (short answer) va ko'p tanlashli javob (multiple choice) savollari birlashtiriladi: noto'g'ri javoblarning bir necha marta kiritilishidan so'ng (noto'g'ri javoblarga imkon berilish soni mashqlar yaratilayotganda belgilanadi) ochiq turdagi qisqa javobli topshiriq ko'p tanlashli topshiriqqa o'zgaradi.



Mashqdagi javob turi bitta va shuning o'zi barcha savollar uchun bo'lishi, yo har bir savol yoki savollar guruhi uchun o'zgarishi mumkin. Mashqda savollar miqdori (soni) chegaralanmagan.

Mashqlarni bajarishda, o'quvchi ekran yuqori o'ng qismida joylashgan maxsus tugmacha yordamida, ekranga bitta savolni (Show question one by one) yoki biryo'la hamma savollarni (Show all the questions) chiqarishdan birini tanlashi mumkin.

Ma'lumotlarni kiritish

«JQuiz» (Викторина) bo'limini ishga tushirishning bir necha usuli mavjud:

✚ Hot Potatoes dasturini ishga tushirish va asosiy ekranda «JQuiz»ni tanlash;

✚ Hot Potatoes dasturi ishchi oynasida joylashgan menyu qatoridan «Potatoes» (Упражнения) bandini, so'ngra «JQuiz» qism bandini tanlash va sichqoncha chap tugmasini chertish;

✚ (Пуск – Все программы – Hot Potatoes - JQuiz) ketma-ketligini tanlash va sichqoncha chap tugmasini chertish;

✚ Ishchi stolda Hot Potatoes dasturi bo'limlari yorliq sifatida joylangan bo'lsa, unda «JQuiz» yorlig'iga sichqoncha chap tugmasini ketma-ket ikki marta chertish.

1. Bu usullardan birini tanlang va «JQuiz»ni ishga tushiring. Dasturning shu bo'lim ishchi oynasi ochiladi.


2. «Title» (Имя) satriga yaratilayotgan mashqning sarlavhasini kiriting.

3. Sarlavha satri ostidagi «Q» maydoniga savolni kiriting. «Q» maydonining ost chap qismida joylashgan «Answers» maydonlariga esa javoblarni kiriting.

The screenshot shows the JQuiz application window. At the top is a menu bar with 'File', 'Edit', 'Insert', 'Manage Questions', 'Options', and 'Help'. Below the menu is a toolbar with various icons. The main area is divided into sections. The 'Title' section has a text field containing 'A Quiz made with JQuiz'. Below it is a dropdown menu labeled 'Q1' with 'Multiple-choice' selected. To the right of this is a text field containing the question: 'What's the maximum number of answers you can include in a multiple-choice quiz question?'. Below the question is a table with four rows, each representing an answer choice. The first column is labeled 'A', 'B', 'C', and 'D' respectively. The second column is labeled 'Answers' and contains text fields with 'four', 'five', 'unlimited', and an empty field. The third column is labeled 'Feedback' and contains text fields with 'It's more than that!', 'It's more than five!', 'Correct! You can include as many answers as you like for any JQuiz question.', and an empty field. The fourth column is labeled 'Settings' and contains checkboxes for 'Correct'. The checkboxes for the first three rows are unchecked, and the checkbox for the third row (C) is checked.


4. «Q» (Вопрос - Savol) maydonining o'ng tomonida joylashgan ochiluvchi ro'yhatdan javob turini tanlang: dasturning asli holatida «multiple choice» («множественный выбор» - «ko'p tanlash» ya'ni ko'p javoblardan faqat birini tanlash) – belgilangan; «multi-select» («несколько правильных ответов» - «bir necha to'g'ri javoblar»); «short answer» («краткий открытый ответ» - «ochiq qisqa javob»), «hybrid» («смешанный» - «aralash, qo'shma»).

5. To'g'ri javoblarni belgilash: «Q» maydonining ost o'ng qismida joylashgan «Correct» (Правильно – To'g'ri) iborasi yonida joylashgan kvadrat katakchaga nishon qo'ying (to'g'ri javob varianti joylashgan satr to'g'risidagi kvadrat katakchaga).



* Ochiq qisqa javob savolini bitta yoki bir nechta to'g'ri javob variantlari bo'lishi mumkin.

6. Zaruriyat tug'ilganda javoblarga izoh kiriting. Izohlar «Q» maydonining ost o'rta qismida joylashgan «Feedback» (Обратная связь) maydoniga klaviatura yordamida kiritiladi.



Keyingi savolga o'tishda savol tartib raqami keltirilgan maydon yonidagi («pastga», «yuqoriga» tugmalari) strelkalardan (ko'rsatkichlardan) foydalaniladi.

Mashqlarni bajarishda, o'quvchi ekran yuqori o'ng qismida joylashgan maxsus tugmacha yordamida, ekranga bitta savolni (Show question one by one) yoki biryo'la hamma savollarni (Show all the questions) chiqarishdan birini tanlashi mumkin.

Ekranga savollarni bittadan chiqargan kabi, xuddi shunday biryo'la barchasini ham chiqarish mumkin.

- ekranga chiqarilishi lozim bo'lgan savollarning belgilangan sonini o'rnatish (bitta savol, bir necha savollar yoki barcha savollar biryo'la; agar savollar soni o'rnatilmagan bo'lsa, u holda – «bitta savolni (Show question one by one) yoki biryo'la hamma savollarni (Show all the questions) ko'rsatish» («Показать один вопроса или все сразу») tanlovini o'quvchi bajaradi.

Mashqlarni tahrirlash quyidagi qism bandlarni o'z ichiga olgan:

- ✚ (View Quiz Outline) – barcha savollarni ko'rib chiqish,
- ✚ (Delete Questions) - o'chirish,
- ✚ (Clone Question) - nusxalash,
- ✚ (Move Questions) – joyidan ko'chirish,
- ✚ (Insert Question) – savollarni o'rnatish,
- ✚ (Shuffle) – savol va javoblarning tartibini o'zgartirish»

menyu qatorining «Manage Questions» (Редактирование – Tahrirlash) bandi yordamida amalga oshiriladi.



7. Ma'lumotlarni kiritish va mashqlarni tahrirlash yakunlangandan keyin ma'lumotlarni mashqlarga (veb-sahifaga) aylantirmoq zarur – 2.3 bo'limga qarang.

8. Ma'lumotlar faylini saqlang – 2.4 bo'limga qarang.

Bu vazifalar bajarilgandan keyin:

a) dasturning ushbu bo'limida «File» (Файл) menyusining – «New» (Создать) bandini tanlash yoki uskunalar panelidan mos tugmani bosish orqali yangi mashqni yaratish;

b) dasturning mazkur bo'limini yopish va Hot Potatoes dasturi asosiy ekranida boshqa bo'limga o'tish;

v) Hot Potatoes dasturi bilan ishlashni yakunlash mumkin.

Viktorina bo'limining qo'shimcha imkoniyatlari

Konfiguratsiyalarni sozlash

Viktorinada mashqlar konfiguratsiyalarini **sozlash** uchun ko'pgina imkoniyatlar taqdim etiladi. «Configuration file» (Настройка конфигурации)

oynasidan «Other» (Другое) bandini tanlab quyidagilarni amalga oshirish mumkin:

- mashqlarni har bir yuklashda savollar tartibini o'zgartirish;
- birinchi urinishda to'g'ri javob berilgan savollar sonini ko'rsatish;
- har bir to'g'ri javobdan keyin umumiy bahoni ko'rsatish;
- javoblarni tekshirishda harflarni (bosh, kichik harflar) yozilishini hisobga olish;
- boshqa mumkin bo'lgan to'g'ri javoblar ro'yhatini ko'rsatish;
- keyinchalik topshiriq ko'p javobdan birini tanlashli savolga o'zgaradigan ochiq turdagi qisqa javobni kiritishga urinishlar sonini o'rnatish (sozlash aralash turdagi javoblarda ishlatiladi);
- ekran klaviaturasini qo'llash (qisqa ochiq turdagi qisqa javoblar uchun);
- ekranga belgilab olingan miqdordagi savollarni chiqarish.

Bundan tashqari, tajribali, ya'ni kompyuter texnologiyalari sohasida ilgarilab ketgan foydalanuvchilar javoblar to'g'rilik darajasini baholash; qisman to'g'ri javoblarni hisobga olish; testdan o'tkazish tartibini qo'shish imkoniyatlarini ishlatishlari mumkin.

Viktorinada qo'shimcha imkoniyatlardan foydalanish uchun quyidagi ketma-ketlikdan foydalanish zarur. «Options» (Настройки) - «Mode» (Режим) - «Advanced mode». («Advanced mode» bandi tajribali foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan.)

Tajribali foydalanuvchilar uchun qo'llanma dastur «Справка» - «Ma'lumotnoma»sidagi mos bo'limda («For power-users») berilgan.

3. Mashqlar yaratish bo'yicha tavsiyalar (matnli materiallar asosida)


3.2. Bo'shliqlarni to'ldirish (JCloze)

Ma'lumotlarni kiritish

1. Hot Potatoes dasturini ishga tushiring, ekranda «JCloze»ni tanlang va sichqoncha chap tugmasini cherting. Dasturni «JCloze» bo'limining ishchi oynasi ochiladi. (Bu bo'limni ochishning yana bir usuli menyu qatoridan «Potatoes» (Упражнения) bandi, so'ngra «JCloze» qism bandini tanlash orqali bajariladi.)

2. «Title» (Имя) satriga mashq sarlavhasini kiriting.

3. Sarlavha satri ostidagi katta maydonga bo'shliqlar hosil bo'lishi lozim bo'lgan, ya'ni so'zlari tushirib qoldirilishi darkor bo'lgan matnni yoki harflari tushirib qoldirilishi zarur bo'lgan so'zlarni kiriting. Matn klaviatura yordamida yoki biror-bir hujjatdan nusxa olib joylashtirish orqali kiritiladi.



4. Mashqda tushirib qoldirilishi kerak bo'lgan so'zlar yoki harflarni belgilang. Buning uchun zaruriy so'z yoki uning qismi (bo'lagi) belgilab olinadi va «Gap» (Пропуск) tugmasi bosiladi (sichqoncha chap tugmasini chertish orqali).


Belgilab olingan so'zlar, harflar, sanalar «Gapped words alternatives» (Варианты пропущенных слов – Пропуски) oynasining «Word» (Слово) satrida namoyon bo'ladi.

* *Eslatib o'tish joiz, har bir so'z, sana, harf alohida-alohida belgilanadi.*

Matnda tushirib qoldirilgan so'zlarning tartib raqami «Gap#» (Номер пропуска) satrida ko'rsatiladi.


Masalan: «Havolalar yordamida ikki va undan ortiq (cheksiz) web-sahifalarni bir-biriga bog'lashingiz mumkin. Havola rus tilida "ссылка" deb ataladi. Havolalar yordamida web-sahifangiz uchun menyu tuzishingiz mumkin.....

Havolalar yordamida foydalanuvchilar sizning web sahifangizda sahifa bo'ylab tom ma'noda sayohat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar....» Bu keltirilgan gaplarda tushirib qoldirilishi lozim bo'lgan so'zlarni ajratib olaylik. Birinchi gapdan «web-sahaifalarni» so'zlarini, ikkinchi gapdan «ссылка» so'zini, uchinchi gapdan «menyu» so'zini, to'rtinchi gapdan «sayohat» so'zini belgilaylik. Bu so'zlarni ketma-ket tarzda emas balki, birinchi, to'rtinchi gapdagi so'zni belgilang, ikkinchi, uchinchi gapdagi so'zni va hokazo. Dasturning afzalligi ham shunda-ki, matnda tushirib qoldirilishi lozim bo'lgan so'zlarni siz tartibsiz belgilaganingizda ham, dastur avtomatik tarzda saralab tartib bilan joylashtiradi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, matnda tushirib qoldirilgan so'zlar tartib raqami «Gap#» (Home nponycka) satrida namoyon bo'ladi.



Agar talabalarga yo'l-yo'riq yoki javob variantlarini kiritish kerak bo'lmasa, unda «OK» tugmasini bosing va matnda tushirilishi lozim bo'lgan so'zlarni belgilashda davom eting. Bo'shliqlar sifatida belgilangan so'zlar (harflar) avtomatik tarzda matnda tagiga chizilgan, qizil rangda ajratilib tasvirlanadi.

Matnda bo'shliq uchun belgilangan so'zlar ketma-ketligini tanlash ahamiyatli emas, yuqorida ta'kidlaganimizdek, hamma tushirib qoldirilgan so'zlar avtomatik tarzda matn boshidan boshlab tartiblanadi.



[Index](#)
[=>](#)

MASHQ

Gap-fill exercise

Fill in all the gaps, then press "Check" to check your answers. Use the "Hint" button to get a free letter if an answer is giving you trouble. You can also click on the "[?]" button to get a clue. Note that you will lose points if you ask for hints or clues!

1. Havolalar yordamida bog'lanadi.
2. Havola ruschada " " deyiladi.
3. Havolani boshqacha nomi .
4. Havolalar bir necha turga bo'linadi.

[Check](#)
[Hint](#)

[Index](#)
[=>](#)

Mashqlarni tahrirlash

«Delete Gap» (Удалить пропуск) va «Clear Gaps» (Очистить - Удалить все пропуски) tugmalari mashqda tushirib qoldirilgan so'zlarni o'zgartirishga imkon beradi. «Show words» (Показать пропущенные слова) tugmasi «Gapped words alternatives» (Варианты пропущенных слов) muloqot oynasiga o'tishga, shuningdek, tushirib qoldirilgan so'zlarni tartib raqami ila tanlab, to'g'ri javoblarning alternativ variantlarini yoki yo'l-yo'riqlarni tahrirlashga imkon yaratadi.

5. O'qituvchi xohishiga ko'ra tushirib qoldirilgan so'zlarni, harflarni, sanalarni ekranga chiqarish yoki chiqarmaslik mumkin:

[Index](#)
[=>](#)

MASHQ

Gap-fill exercise

Fill in all the gaps, then press "Check" to check your answers. Use the "Hint" button to get a free letter if an answer is giving you trouble. You can also click on the "[?]" button to get a clue. Note that you will lose points if you ask for hints or clues!

[ссылка](#)
[murojaatdir](#)
[sahifalar](#)

1. Havolalar yordamida [?] bog'lanadi.
2. Havola ruschada " [?] " deyiladi.
3. Havolani boshqacha nomi [?].
4. Havolalar bir necha turga bo'linadi.

[Check](#)
[Hint](#)

[Index](#)
[=>](#)

Tushirib qoldirilgan so'zlarni ekranga chiqarilgan ko'rinishi

Index =>

MASHQ

Gap-fill exercise

Fill in all the gaps, then press "Check" to check your answers. Use the "Hint" button to get a free letter if an answer is giving you trouble. You can also click on the "[?]" button to get a clue. Note that you will lose points if you ask for hints or clues!

- Havolalar yordamida [?] bog'lanadi.
- Havola ruschada " [?] " deyiladi.
- Havolani boshqacha nomi [?] .
- Havolalar bir necha turga bo'linadi.

Check Hint

Index =>

Tushirib qoldirilgan so'zlarni ekranga chiqarilmagan ko'rinishi

Tushirib qoldirilgan so'zlarni ekranga chiqarish uchun, (Configure Output) konfiguratsiya to'g'irlashlari oynasidan «Other» (Другое) bandini tanlash va «Include word list with text» (Вывести список пропущенных слов на экран) iborasi yonida joylashgan kvadratchaga nishon qo'yish lozim.

** Agar bu nishon qo'yilmagan bo'lsa, tushirib qoldirilgan so'zlar ekranga chiqarilmaydi!*

Configuration file: C:\Program Files\HotPotatoes6\english6.cfg

Undo Insert

Titles/Instructions Prompts/Feedback Buttons Appearance Timer Other Custom CGI

☐ Include SCORM 1.2 functions

☐ Use dropdown list instead of text box in output

☒ Include word list with text

☐ Make answer-checking case-sensitive

☐ Include a keypad to help the student type non-roman characters

Always include these characters on the keypad:

6 letters is the minimum size for gap textboxes on the Webpage.

☐ Do special processing to handle right-to-left language data in the output.

☐ Create a separate linked file containing the JavaScript code

Load Save Save As OK Help

Qo'shimcha imkoniyatlar

Yo'riqlar va to'g'ri javoblar variantlari


«Gapped words alternatives» (Варианты правильных ответов) muloqot oynasining «Clue» (подсказка) satrida tushirib qoldirilgan so'zga yo'riq (ta'rif, sharh, izoh, sinonim, antonim, tarjima) kiritish mumkin.

Undan mashqni bajarish jarayonida foydalansa bo'ladi, shu ma'nodaki, tushirib qoldirilgan so'zga keltirilgan ta'rif, sharh, izoh talabaga yordamchi vosita sifatida asqotadi.

* *yo'riq (ta'rif, sharh, izoh, sinonim, antonim, tarjima) o'qituvchi tushirib qoldirilgan so'zlarni ekranga chiqarmaganda talabaga «shpargalka» bo'lib xizmat qiladi.*


Bundan tashqari, zaruriyat tug'ilganda «Alternative correct answers» (Варианты правильных ответов) maydoni satrlariga to'g'ri javob variantlarini kiritish mumkin.

* *Hamma so'zlarga ham to'g'ri javob variantlari va yo'riqlarni kiritish shart emas.*



Agar mashqda tushirib qoldirilgan so'zlarga yo'riq (ta'rif, sharh, izoh, sinonim, antonim, tarjima) kiritilgan bo'lsa, ekranda har bir bo'shliq yonida «?» (so'roq) belgisi paydo bo'ladi.


Mashqni bajarish jarayonida bu belgiga sichqoncha chap tugmasini bossangiz, bo'shliqda joylashishi lozim bo'lgan so'z to'g'risida ko'rsatmaga (yo'riq, izoh, sharh va hokazo) ega bo'lasiz.



Bo'shliqlarni avtomatik yaratish

Dasturda bo'shliqlarni avtomatik yaratish tartibi o'rnatilgan. U «Auto-Gap» (Автопропуск) tugmasini bosish orqali ishga tushadi. Ishga tushgan «Auto-Gap» (Автопропуск) muloqot oynasining «Type a number for “n”» (Введите порядковый номер) satrida tushirib qoldirilishi zarur bo'lgan so'zlarni tartib raqami ko'rsatilishi lozim (masalan: har bir ikkinchi so'z, har bir to'rtinchi so'z, har bir beshinchi so'z va hokazo).


* «JCloze» bo'limining sarlavha satri ostidagi katta maydonga matn kiritilgan va bu matnda 4 ta gap bo'lsin. Har bir gapda ko'pi bilan to'rttadan so'z bor deb tasavvur qiling. Agar siz «Auto-Gap» (Автопропуск) muloqot oynasining «Type a number for “n”» (Введите порядковый номер) satriga 3 sonini kiritib «OK» tugmasini bossangiz, sarlavha satri ostidagi maydonga kiritilgan matndagi har bir uchinchi so'zning (jami 5 ta so'zning) qizil rangda, tagiga chizilgan ko'rinishda tasvirlanganligiga shohid bo'lasiz (ya'ni, tushirib qoldirilishi zarur bo'lgan so'zlar qizil rangda, tagiga chizilgan holatda namoyon bo'ladi).



Javoblarni baholashda yozuvlar (bosh harflar/kichik harflar)ni hisobga olish

Kiritilgan javoblarning to'g'riligini baholashda bosh yoki kichik harflar qo'llanilganligini hisobga olishni konfiguratsiya sozlamasi orqali o'rnatish yoki o'rnatilganini o'chirib tashlash mumkin.

Buning uchun «Configuration file» (Файл конфигурации) oynasidan «Other» (Другое) bandini tanlab «Make answer-checking case sensitive» (Учет регистра при оценке ответов) iborasi yonida joylashgan kvadratchaga nishon qo'yish yoki olib tashlash lozim.



Shu bilan birga, bu mashqni bajarish jarayonida talaba so'zlarni klaviaturadan terib emas, balki, sichqoncha yordamida harflarni kiritishi uchun qo'laylik yaratilgan-ki, unda ekranga klaviaturani (ekran klaviaturasini) chiqarishi mumkin. (Ekran klaviaturasi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish uchun 3.7 – bo'limga qarang.)

6. Mashqda ma'lumotlarni kiritib va tahrirlab bo'lgandan so'ng, ularni veb-sahifa ko'rinishiga o'girish kerak – 2.3 bo'limga qarang.

7. Ma'lumotlar faylini saqlang – 2.4 bo'limga qarang.

Bu vazifalarni bajargandan keyin:

a) ushbu bo'limda «File» (Файл) menyusining – «New» (Создать) bandini yoki uskunalar panelidan mos tugmani bosish orqali yangi mashq yaratish;

b) dasturning mazkur bo'limini yopish va Hot Potatoes dasturining asosiy ekranidan boshqa bo'limga o'tish;

v) Hot Potatoes dasturi bilan ishlashni tugallash mumkin.

3. Mashqlar yaratish bo'yicha tavsiyalar (matnli materiallar asosida)

3.3. Moslikni o'rnatish(JMatch)

Shunga o'xshash mashqlarda muvofiqlik, odatdagidek, quyidagi elementlar orasida o'rnatiladi:

so'z	–	sinonim
so'z	–	antonim
jumla	–	izoh (sharh)
so'z	–	ta'rif (tavsif)
so'z	–	tarjima
so'z	–	tasvir
so'z	–	ovozli shakl va hokazo.

** Moslikni o'rnatish boshqacha talqinda – muvofiqlikni o'rnatish, munosiblikni o'rnatish, loyqlikni o'rnatish, mos kelishlikni o'rnatish deb ham yuritiladi.*

Hot Potatoes dasturining bu tur mashqlari ham elementlar ketma-ketligini tiklash topshiriqlarini o'z ichiga oladi. Ushbu holatda muvofiqlik gap yoki so'zlarning zaruriy ketma-ketligi va tartib raqamlari o'rtasida o'rnatiladi.

(1) First:	Start a Hot Potato.
(2) Second:	Enter your data.
(3) Third:	Save your data.
(4) Fourth:	Set the correct configuration.
(5) Fifth:	Click on "File / Create Web page".

Mashq uch xil formatda taqdim etilishi mumkin:

- elementlarni (so'zlar, gaplar) sichqoncha yordamida ko'chirish va kerakli joyga joylashtirish orqali muvofiqlikni o'rnatish;
- ochiluvchi ro'yhatdan muvofiqlik variantini tanlash;
- muvofiqlikni yodda saqlash uchun kartochkalar.

** Birinchi formatda «Drag and Drop» (Возьму и перемещу) texnologiyasi qo'llaniladi.*

Mashqlar turini tanlash ma'lumotlarni mashqlarga aks ettirish bosqichida amalga oshiriladi.

Ma'lumotlarni kiritish

1. «JMatch» (Muvofiqlikni o'rnatish) bo'limini ishga tushirishning (3.1 va 3.2 bo'limlar kabi) bir necha usuli mavjud:

 Hot Potatoes dasturini ishga tushirish va asosiy ekranda «JMatch»ni tanlash;

Hot Potatoes dasturi ishchi oynasida joylashgan menyu qatoridan «Potatoes» (Упражнения) bandini, so'ngra «JMatch» qism bandini tanlash va sichqoncha chap tugmasini chertish;

(Пуск – Все программы – Hot Potatoes - JMatch) ketma-ketligini tanlash va sichqoncha chap tugmasini chertish;


Ishchi stolda Hot Potatoes dasturi bo'limlari yorliq sifatida joylangan bo'lsa, unda «JMatch» yorlig'iga sichqoncha chap tugmasini ketma-ket ikki marta chertish.

Bu usullardan birini tanlang va «JMatch»ni ishga tushiring. Dasturning shu bo'lim ishchi oynasi ochiladi.

2. «Title» (Имя) satriga yaratilayotgan mashqning sarlavhasini kiriting.

3. Sarlavha satri ostidagi (Left (ordered) items) va (Right (jumbled) items) maydonlarga mos ravishda mashq materiallarini kiriting. Birinchi maydon o'zgarmaydigan elementlar ro'yhati uchun mo'ljallangan. Ikkinchi maydon o'zgarmaydigan ro'yhat elementlariga, ya'ni birinchi maydon elementlariga mos kelishi lozim bo'lgan, tanlanadigan elementlar uchun mo'ljallangan.

4. Elementlar to'g'ri ketma-ketlikda kiritiladi – mashqlar yuklanganda ular avtomatik tarzda aralashadi (chiylanadi, chalkashtiriladi).



Dastlabki ikki tip mashqlar uchun ma'lumotlar kiritishda, mosliklardan birining qarshisiga «Fix» (зафиксировать) nishonini o'rnatib, ro'yxatdagi harakatlanuvchi elementlar birini siljimaydigan qilib qo'yish imkoniyatini ishlatish mumkin. «Siljimaydigan» deb belgilangan moslik ekranda avtomatik o'rnatiladi va to'g'ri javob topshiriq bajarilishiga xizmat qiladi.

File Edit Insert Manage Items Options Help

Which is a particular word for trip that involves:

	Left (ordered) items	Right (jumbled) items	Fix
1	travelling by car?	drive	☐
2	going across water?	crossing	☐
3	travelling for research?	expedition	☒
4	an organized trip for a group?	outing	☐
5	a long trip in space?	voyage	☐
Default:		???	

Which is a particular word for trip that involves:

Check

travelling by car?		
going across water?		crossing
travelling for research?	expedition	voyage
an organized trip for a group?		drive
a long trip in space?		outing

First: ???

Second: ???


Third: Save your data.

Fourth: ???

Fifth: ???


Finally: ???

Ikkinchi tip mashqlarda (ro'yxatdan moslik elementlarini tanlash) «Default» (По умолчанию) maydoni ishlatiladi.




Maydonga kiritilgan matn, ekranga ochiladigan ro'yxatning birinchi so'zi sifatida chiqariladi. Bu esa o'z navbatida quyidagilar bo'lishi mumkin:

- bir yoki bir necha so'roq belgisi;



- to'ldirilmagan maydon – mashqlar ekranida xuddi shunday qoladi;




- qo'shimcha noto'g'ri javob;

- to'g'ri javoblardan biri.

Buning uchun javob faqat «Default» (По умолчанию) maydoniga kiritiladi xalos, mosliklar maydoniga emas:

	Left (ordered) items	Right (jumbled) items	Fix
1	travelling by car?	drive	☐
2	going across water?	crossing	☐
3	travelling for research?	expedition	☒
4	an organized trip for a group?	outing	☐
5	a long trip in space?		☐
Default:		voyage	

Mashqlarni tahrirlash «Manage Items» (Элементы) menyusining bandi yordamida amalga oshiriladi, ya'ni o'zgarmas ro'yxatdagi elementlar ketma-ketligini almashtirish mumkin (View Exercise Outline), kiritilgan moslikni joyiga qo'yish (Insert item), joyini o'zgartirish (Move Item) va yo'qotish (Delete Item), kiritilgan elementlar ketma-ketligini va ularga mos to'g'ri javoblarni o'zgartirish (Shuffle items) va maydonlar o'rnini almashtirish (Shuffle left items with right items).




5. Ma'lumotlarni mashqlar veb-sahifalariga akslantirish. Buning uchun mashqlarning kerakli formatini tanlash zarur:

5.1. Sichqoncha tugmasi chertilishi orqali elementlar mosligi o'rnatiladigan mashqlarni yaratish uchun, «File» (Файл) menyusining «Create Web-page» (Создание веб-страницы) bandi, so'ngra «Drag/Drop Web-Page» («Веб-страница с перемещением») qism bandi yoki uskunalar panelidagi unga mos tugmacha tanlanishi zarur.


* «Drag and Drop» (Возьми и перемести) texnologiyasi qo'llaniladi.

5.2. Ochiladigan ro'yxatdan moslik varianti tanlanadigan mashqlar yaratish uchun, «File» (Файл) menyusidagi «Create Web-page» (Создание веб-страницы) bandining «Web-Page» (Веб-страница) qism bandi yoki uskunalar panelidagi unga mos tugmachani tanlash lozim.

5.3. So'z va ifodalarni eslab qolish uchun kartochkalar, faqat: «File» (Файл) menyusidagi «Create Web-page» (Создание веб-страницы) bandining «Flashcards» (Карточки) qism bandi yordamida yaratiladi.



Mashqlarni bajarishda dastlab ekranga mashqlar maydoni biridan matnli kartochka, «Next» (Далее) tugmasi bosilgandan so'ng, moslikning to'g'ri varianti bilan ikkita kartochka paydo bo'ladi.



«Next» (Далее) tugmasi yordamida keyingi mosliklar juftligiga o'tish amalga oshiriladi. Yod olingan yoki o'rganilgan mosliklar kartochkalari ro'yxatdan «Delete» (Удалить) tugmasi yordamida yo'qotiladi.

6. Mashqda ma'lumotlarni kiritib va tahrirlab bo'lgandan so'ng, ularni veb-sahifa ko'rinishiga o'girish kerak – 2.3 bo'limga qarang.

7. Ma'lumotlar faylini saqlang – 2.4 bo'limga qarang.

Bu vazifalarni bajargandan keyin:

a) ushbu bo'limda «File» (Файл) menyusining – «New» (Создать) bandini yoki uskunalar panelidan mos tugmani bosish orqali yangi mashq yaratish;

b) dasturning mazkur bo'limini yopish va Hot Potatoes dasturining asosiy ekranidan boshqa bo'limiga o'tish;

v) Hot Potatoes dasturi bilan ishlashni tugallash mumkin.

3. Mashqlar yaratish bo'yicha tavsiyalar (matnli materiallar asosida)

3.4. Krossvord (JCross)

Ma'lumotlarni kiritish

1. «JCross» (Krossvord – «topishmoqning bir turi: kataklarni harflar bilan to'ldirib, yashirilgan so'zlarni topish») bo'limini ishga tushiring. Bu bo'limni ishga tushirishning bir necha usuli mavjud:

✚ Hot Potatoes dasturini ishga tushirish va asosiy ekranda «JCross»ni tanlash;

✚ Hot Potatoes dasturi ishchi oynasida joylashgan menyu qatoridan «Potatoes» (Упражнения) bandini, so'ngra «JCross» qism bandini tanlash va sichqoncha chap tugmasini chertish;


✚ (Пуск – Все программы – Hot Potatoes - JCross) ketma-ketligini tanlash va sichqoncha chap tugmasini chertish;

✚ Ishchi stolda Hot Potatoes dasturi bo'limlari yorliq sifatida joylangan bo'lsa, unda «JCross» yorlig'iga sichqoncha chap tugmasini ketma-ket ikki marta chertish.

Keltirilgan usullardan birini tanlab «JCross»ni ishga tushiring. Dasturning shu bo'lim ishchi oynasi ochiladi.

2. «Title» (Имя) maydoniga yaratilayotgan mashqning sarlavhasini ya'ni krossvordning nomini kiriting. Agar bajarilgan (yechilgan) krossvordni chop etish rejalashtirilgan bo'lsa, ushbu maydonni to'lg'azish shart.

3. Krossvordda so'zlarni joylashtiring (krossvord to'rini yarating). So'zlarni ikki usulda joylashtirishni imkoni bor, ya'ni qo'lda va avtomatik.




Qo'lda joylashtirish. So'zlarni qo'lda joylashtirganda so'zlarning to'rdagi holati foydalanuvchi tomonidan aniqlanadi: so'zlar krossvord maydoniga harfma-harf kiritiladi.

Avtomatik joylashtirish. So'zlarni avtomatik tarzda joylashtirishda barcha so'zlar «Create a crossword grid automatically» (Автоматическое создание сетки – to'rni avtomatik yaratish) oynasining so'zlarni kiritish maydoniga ro'yxat tarzida kiritiladi, so'ngra dastur ularni joylashtirishning variantlarini tanlaydi.

Krossvord to'rini avtomatik usulda yaratish uchun:

- menyu qatoridan «Manage Grid» (Сетка) bandini, so'ngra «Automatic Grid-Maker» (Автоматическое создание сетки) qism bandini yoki uskunalar panelidan mos tugmani tanlab sichqoncha chap tugmasini chertish;
- krossvorddagi maksimal yacheykalar (katakchalar) sonini «Maximum grid size» maydoniga kiritish;
- so'zlarni kiritish maydoniga krossvordning barcha so'zlarini kiritish (esda tutmoq lozim: har bir so'z yangi satrdan kiritilishi darkor);




- «Make the grid» (Создать сетку – To'rni yaratish) tugmasini bosish zarur.

Yuqoridagi amallar bajarilgandan keyin kiritilgan so'zlar krossvord maydoniga joylanadi.


* *Ekranning chap pastki burchagida joylashgan strelka (ko'rsatkich)-tugmalar (o'ngga, chapga, yuqoriga, pastga tugmalari) yordamida yaratilgan krossvordni maydon chegarasidan chiqmagan holda (maydon doirasida) joyidan siljitish (boshqa joyga ko'chirish) mumkin.*

4. So'zlarga ta'rif (tavsif) kiriting. Ta'riflar klassik definitsiyalar, sinonimlar, antonimlar, giponimlar, giperonimlar, shuningdek, gaplar va so'z birikmalari, ya'ni kontekstda (nutq yoki asarning tugal fikrini anglatuvchi parchasi shaklida) taqdim etilgan krossvord so'zlari bo'lishi mumkin.



«Add clues» (Ввести определения – Ta'riflarni kiritish) tugmasi bosilganda ta'riflarni tahrirlash oynasi paydo bo'ladi. Krossvodda gorizontaal (Across) bo'yicha so'zlar ekranning yuqori qismida, vertikal (Down) bo'yicha so'zlar esa pastki qismida joylashgan. Ta'riflarni kiritish uchun ro'yxatdan (ketma-ketlikdan) kerakli so'z ajratib olinadi, ro'yxatning pastki qismida joylashgan maydonga belgilangan so'zning ta'rifi kiritiladi va «OK» tugmasi bosiladi.

Ta'riflarni kiritish ketma-ketligini ahamiyati yo'q.




Ta'riflar yozilgandan so'ng krossvord to'riga ixtiyoriy o'zgartirishlarni kiritish mumkin – so'zlarni joyidan ko'chirganda (joyini o'zgartirganda) dastur ta'riflarni muvofiqligini saqlab qoladi.

Qo'shimcha sozlashlar

Mashqda ta'riflarni ko'rsatish. Krossvord-mashq ekranida ta'riflar bittadan yoki hammasi birdaniga taqdim etilishi mumkin.

Tanlangan so'zga bitta ta'rif – dasturning asli holatida taqdim etiladi.

Bira to'la barcha ta'rif – menyu qatorining «Options» bandidan «Configure output» qism bandini tanlash, ochilgan «Configuration file:» (Настройка конфигурации – Konfiguratsiya sozlashlari) muloqot oynasidan «Other» (Другое – Boshqa sozlovlar) bandini tanlash, so'ngra «Show all clues below the crossword grid» (Показывать все определения – Barcha ta'riflarni ko'rsatish) iborasi yonida joylashgan kvadratchaga nishon qo'yish vazifalarini bajarish orqali krossvord-mashq ekranida taqdim etiladi.



5. Ma'lumotlar kiritilgan va mashqlar tahrirlangandan so'ng ma'lumotlarni mashqlarga (veb-sahifaga) akslantirish zarur – 2.3 bo'limga qarang.

6. Ma'lumotlar faylini saqlang – 2.4 bo'limga qarang.

Bu vazifalar bajarilgandan keyin:

a) dasturning ushbu bo'limida «File» (Файл) menyusining – «New» (Создать) bandini yoki uskunalar panelidan mos tugmani bosish orqali yangi mashq yaratish;

b) dasturning mazkur bo'limini yopish va Hot Potatoes dasturini asosiy ekranida boshqa bo'limga o'tish;

v) Hot Potatoes dasturi bilan ishlashni tugallash mumkin.

Mashqlarni bajarish

Krossvorda topshiriqlarni bajarish ketma-ketligi ixtiyoriy. So'zlarning tartib raqami tanlanganda ekranda uning ta'rifi (tavsifi) paydo bo'ladi (ekranda barcha ta'riflar ro'yxati bo'lishidan qat'iy nazar).

Complete the crossword

Down: 4: The Hot Potatoes programs make _____ pages.

Krossvordni chop etish

Chop etish versiyasi veb-sahifa ko'rinishida, ikki xil – to'ldirilmagan (bo'sh) va yechilgan (bajarilgan) variantlarda taqdim etilgan holda yaratiladi. Chop etishga mo'ljallangan krossvord versiyali veb-sahifani yaratish uchun menyu qatorining «File» (Файл) bandidan «Export for printing» (Экспорт для печати) qism bandini tanlash lozim.

Ekranda oq-qora variantda krossvordli veb-sahifa paydo bo'ladi:

Yechilgan (bajarilgan) krossvordli sahifa variantini chop etish uchun, hosil bo'lgan sahifadagi «krossvord nomiga» sichqoncha chap tugmasini chertish kerak.

Crossword

Across:

1 The program used to make jumbled-sentence exercises.

2 The scripting language used to create these exercises.

5 The program used to build linked sequences of exercises (units or chapters).

6 The program used to make gap-fill exercises.

Down:


1 The program used to make this crossword.

2 The program used to make exercises with short-answer or multiple-choice questions.

3 The program used to make matching exercises.

4 The Hot Potatoes programs make _____ pages.

Dastlabki variantga ya'ni yechilmagan krossvordli sahifaga qaytish uchun, «krossvord nomiga» sichqoncha chap tugmasini takroran chertish yetarlidir.



Tayyor veb-sahifalar standart usulda, matn muharririda qanday bo'lsa, xuddi shunday veb-brauzeridan chop etiladi.

Veb-brauzeridan krossvordni to'g'ri chop etish uchun brauzerning holatini to'g'irlash lozim, u quyidagi ketma-ketlikni bajarish orqali amalga oshiriladi. (Menyu qatorining «Сервис» bandidan – «Свойства обозревателя» –so'ngra «Дополнительно» – Параметры: печать: «Печатать цвета и рисунки фона»).

3. Mashqlar yaratish bo'yicha tavsiyalar (matnli materiallar asosida)

3.5. Ketma-ketlikni tiklash (JMix)

Gaplar va so'zlar mashq uchun material bo'lishi mumkin. Har bir gaplar yoki so'zlar uchun mashqlar alohida yaratiladi.

Ma'lumotlarni kiritish

1. «JMix» (Ketma-ketlikni tiklash) bo'limini ishga tushirishning bir necha usuli mavjud:

✚ Hot Potatoes dasturini ishga tushirish va asosiy ekranda «JMix»ni tanlash;

✚ Hot Potatoes dasturi ishchi oynasida joylashgan menyu qatoridan «Potatoes» (Упражнения) bandini, so'ngra «JMix» qism bandini tanlash va sichqoncha chap tugmasini chertish;

✚ (Пуск – Все программы – Hot Potatoes - JMix) ketma-ketligini tanlash va sichqoncha chap tugmasini chertish;


✚ Ishchi stolda Hot Potatoes dasturi bo'limlari yorliq sifatida joylangan bo'lsa, unda «JMix» yorlig'iga sichqoncha chap tugmasini ketma-ket ikki marta chertish.


Bu usullardan birini tanlang va «JMix»ni ishga tushiring. Dasturning shu bo'lim ishchi oynasi ochiladi.

2. «Title» (Имя) satriga yaratilayotgan mashqning sarlavhasini kiriting.

3. Sarlavha satri ostidagi «Main Sentence» (Главное предложение/Правильный вариант) maydoniga so'z birikmasi, so'z yoki gapni klaviatura yordamida kiriting. Har bir bo'g'im (segment) yangi qatordan kiritiladi.

* *Segment (harf, so'z, so'z birikmasi, tinish belgilari).*






Mashqda standart qo'shtirnoqlardan foydalanish kerak yoki umuman ulardan foydalanmaslik zarur. Shuningdek, burchak qavslardan (< >) ham foydalanilmaslik ma'quldir, chunki, ular HTML matnni hoshiyalash tillarida ishlatiladi va mashqda faqat grafik fayllarga murojaatlarni belgilash uchun qo'llanilishi mumkin.

Qo'shimcha sozlovlar.

Sarlavha satri ostidagi «Alternate sentences» (Варианты ответов) maydoni satrlariga «Main Sentence» (Главное предложение/Правильный вариант) maydoniga kiritilgan gapning turli xil tartibdagi variantlari kiritiladi (masalan: «Hot Potatoes dasturi 5 turdagi mashqlarni yaratadi». Bu gapni boshqa varianti «5 turdagi mashqlarni Hot Potatoes dasturi yaratadi» yoki «Hot Potatoes dasturi yaratadi 5 turdagi mashqlarni»).

Gapdagi so'zlarning tartibi o'zgargan variantlari kiritiladi.




Ular uchun ishchi oynada qo'shimcha sozlovlar (Options for alternate sentences) o'rnatiladi:

- agar javob variantlarida boshlang'ich gapdagi hamma so'zlar va tinish belgilari qo'llanilmasa («Warn if alternate sentence does not use all words and punctuation in main sentence») **ogohlantirilsin**;

- agar boshlang'ich gapdagi hamma so'zlar va tinish belgilari qo'llanilmasa («Allow sentences which do not use all words and punctuation in main sentence») **gapni ishlatishga ruxsat etilsin**.


Mashqni bajarish jarayonida gapdagi bosh harflar bilan kelgan birinchi so'z ko'rsatma sifatida qabul qilinmasligi uchun, quyidagi vazifalarni bajarish lozim:

1) «Configuration file» (Настройка конфигурации) muloqot oynasidan «Prompts/Feedback» (Обратная связь) bandini tanlang va «Always capitalize the first letter» (Всегда писать с прописной буквы первое выбранное слово) iborasi yonida joylashgan kvadratchaga nishon qo'ying.



2) Topshiriqni veb-brauzerga eksport qilishda – gapda so'z qaysi joyda joylashganligidan qat'iy nazar birinchi so'zni bosh harf bilan yozilishini rad etmoq zarur. Buning uchun «Should the word «...» always begin with capital letter, even when it isn't at the beginning of a sentence?» (Всегда ли следует писать «...» (первое слово предложения) с заглавной буквы, даже если оно не стоит в начале предложения?) muloqot oynasida «No» (Нет) javobini tanlang.



* agar gapning birinchi so'zi –atoqli bo'lsa «Yes» (Да) javobi tanlanadi (masalan: shahar nomlari, ismlar, daryo nomlari va atoqli otlar).



4. Mashqdagi ma'lumotlarni veb-sahifaga akslantiring. Mashqlar ikki xil formatda ifodalanishi mumkin:

- sichqoncha chap tugmasini chertish orqali elementlarni (so'zlarni, harflarni) (Create Web page – Web page) tanlash;
- sichqoncha yordamida elementlarni (so'zlarni, harflarni) joyidan siljitish (Create web-page – Drag/drop Web-page).

* «Drag and Drop» (*Возьму и перемещу*) texnologiyasi qo'llaniladi.



Mixed-up sentence exercise

Put the parts in order to form a sentence. Click on a part to add it to the answer.
 When you think your sentence is correct, click on "Check" to check your answer. If you
 get stuck, click on "Hint" to find out the next correct part.

Check Restart Hint

Hot Potatoes

is

available

Macintosh

for

and

.

Windows

Sichqoncha tugmasini chertish orqali elementlar (so'zlar, harflar) ketma-ketligini tiklaydigan mashqlar yaratish uchun, «File» (Файл) menyusidan «Create Web-page» (Создание веб-страницы) bandining «Web-Page» (Веб-страница) qism bandini yoki uskunalar panelidan unga mos tugmani tanlash lozim.

Elementlarni (so'zlarni, harflarni) sichqoncha yordamida joyidan «qo'zg'atish va belgilangan joyga o'tkazish» orqali ketma-ketlikni tiklaydigan mashqlar yaratish uchun esa, «File» (Файл) menyusining «Create Web-page» (Создание веб-страницы) bandini, so'ngra «Drag/Drop Web-Page» («Веб-страница с перемещением») qism bandini yoki uskunalar panelidan unga mos tugmani tanlash lozimdir.

5. Ma'lumotlar faylini saqlang – 2.4 bo'limga qarang.

Bu vazifalar bajarilgandan keyin:

a) ushbu bo'limda «File» (Файл) menyusining – «New» (Создать) bandini yoki uskunalar panelidan mos tugmani bosish orqali yangi mashq yaratish;

b) dasturning mazkur bo'limini yopish va Hot Potatoes dasturining asosiy ekranida boshqa bo'limiga o'tish;


c) Hot Potatoes dasturi bilan ishlashni tugallash mumkin.

3. Mashqlar yaratish bo'yicha tavsiyalar (matnli materiallar asosida)

3.6. Mashqlarga matnni qo'shish


Har bir mashqqa asosini topshiriqlar tashkil etgan matnlarni qo'shish mumkin. Ekranda matn topshiriq yonida joylashadi.

* *Agarda mashqlarni bajarish variantlari «Elementlarni sichqoncha yordamida ko'chirish» («Drag and Drop» (Возьму и перемещу) texnologiyasi) orqali tanlangan bo'lsa, matn JMix (Ketma-ketlikni tiklash) va JMatch (moslikni o'rnatish) topshiriqlariga qo'shilmaydi.*




Matnni mashqqa qo'shish uchun «File» (Файл) menyusidan «Add reading text» (Добавить текст) bandini yoki uskunalar panelidan mos tugmani tanlash lozim.

Mashq ekranida matnning ko'rinishi uchun, «Add reading text» (Добавить текст) oynasida «Include a reading text» (Включить текст в упражнение – matnni mashqqa biriktirish) iborasi yonida joylashgan kvadratchaga albatta nishon qo'yish lozim.




Matnni klaviatura orqali yoki ixtiyoriy fayldan nusxalash yordamida kiritish mumkin.



Bundan tashqari, matnni mazkur oynadagi «Import text from an external HTML file:» («Импортировать текст из внешнего HTML файла:» - matnni tashqi HTML fayldan import qilish) iborasi keltirilgan satr ostida joylashgan «Browse» (Обзор) tugmasi yordamida HTML fayldan ham qo'yish mumkin.

* *Bu holatda matn sarlavhasi mos maydonga avtomatik ravishda kiritiladi.*



3.7. Ekran klaviaturasi

Lotin grafikasidan foydalanilmaydigan tillar uchun, mashqlarda klaviatura yordamida javoblarni kiritishda dastur ekran klaviaturadan foydalanish imkoniyatini beradi, bunda harflar sichqoncha yordamida kiritiladi.

«Ekran klaviaturasi» aniq bir mashqni bajarish uchun zarur bo'lgan bir qancha harflar kabi alfavitning barcha harflarini ham qamrashi mumkin.

A Gap-Fill Exercise made with JCloze

Gap-fill exercise

Это простое упражнение, сделанное с помощью блока программы JCloze .
Пользователь вводит ответ, затем нажимает кнопку "проверить" и получает оценку.
Для некоторых пропусков предусмотрены варианты правильных ответов и .

а в д е з и к о п с т

Check Hint

Next example

Ekran klaviaturasini faollashtirish uchun «Configure output» (Настройка конфигурации – Konfiguratsiyalarni sozlash) muloqot oynasida «Other» (Другое) bandini tanlash, «Include a keypad ...» (Использовать экранную клавиатуру) iborasi yonida joylashgan kvadratchaga nishon qo'yish va «Always include these characters on the keypad» (Включить данные буквы в экранную клавиатуру - Berilgan harflarni ekran klaviaturasiga qo'shish) satrida zaruriy harflarni kiritish darkor.

Edit Insert

Titles/Instructions | Prompts/Feedback | Buttons | Appearance | Timer | Other | Custom | CGI

☐ Include word list with text

☐ Make answer-checking case-sensitive

☒ Include a keypad to help the student type non-roman characters

Always include these characters on the keypad:

о а и п д с к т в з

6 letters is the minimum size for gap textboxes on the Webpage.

4. Ma'lumot va mashqlar fayllarini joylashtirish.

Ma'lumotlar fayli va mashqlar faylini yaratishda ularni bitta papkada saqlash qulay.

Имя ▲	Тип
 jcloze1	HTML Document
 jcloze1	HotPotatoClozeFile
 jcross2	HTML Document
 jcross2	HotPotatoCrossFile
 jmix3	HTML Document
 jmix3	HotPotatoMixFile

Agar mashqlar fayllari Hotpotatoes.net saytida joylashtirilmasa, talabalar ishlashi uchun mashqlar fayllarini talabalarga qulay bo'lgan boshqa papkaga nusxa olish yoki o'z serveriga joylashtirish mumkin (buning uchun tarmoq administratoriga murojaat qilish zarur).

* Hotpotatoes.net serveriga joylashtirish har bir mashq yaratilgandan so'ng birdaniga, ya'ni ma'lumotlar veb-sahifaga akslantirilgandan so'ng yoki «The Masher» (Инструменты) dastur bosh menyusi «Hotpotatoes.net» punkti yordamida topshiriqlar dars/darslarga birlashtirilgandan so'ng amalga oshiriladi.

Имя ▲	Тип
 jcloze1	HTML Document
 jcross2	HTML Document
 jmix3	HTML Document

5. Dars yoki tematik blokda mashqlarni birlashtirish.

- 5.1. «Mundarija» veb-sahifasini MS Word matn muharririda yaratish.
- 5.2. Keyingi mashqlarga o'tishni navigatsiya sozlamalari yordamida rostlash.
- 5.3. «The Masher» (Инструменты) dasturlar bloki yordamida mashqlarni darslarga avtomatik birlashtirish.
- 5.4. «Mundarija» sahifasini «The Masher» (Инструменты) dasturlar bloki yordamida avtomatik yaratish.

Mashq fayllari maxsus papkaga saqlangandan so'ng har bir mashq fayllari alohida ochiladi: veb-brouzer va/yoki mashqning «Назад» tugmachalariga murojaat qilish mashqlar sahifalarini yopishda ularning mashqlar papkasiga qaytishi amalga oshiriladi.

Veb-brauzerdan chiqmagan holda mashqdan mashqqa o'tishni sozlash uchun quyidagi imkoniyatlardan foydalanish mumkin:

- ✚ Hot Potatoes dasturidan mustaqil ravishda (masalan, Word matn muharririda) «Содержание» veb-sahifasini mashqlar ro'yxati bo'yicha yaratish va mashqlardan mashqlarga o'tishni gipermurojaat yordamida rasmiylashtirish;

- ✚ Keyingi mashqqa o'tishni ma'lumotlarning boshlang'ich fayllarida navigatsiyani rostlash yordamida to'g'rilash. Bunday to'g'rilashda «Next» (Далее) yoki «Back» (Назад) tugmachalari bosilganda kerakli mashqlarga o'tish jarayoni amalgam oshiriladi.

Bundan tashqari «The Masher» (Инструменты) dasturlar bloki yordamida quyidagilarni avtomatik ravishda yaratish mumkin:

- ✚ Mashqlarni ma'lumotlar fayllari asosida va «Index» (Содержание) sahifasini mashqlar ro'yxati asosida;

- ✚ Ilgari mavjud bo'lgan mashqlar uchun «Index» (Содержание) sahifasini.

*** Dasturlar blokining pulli bo'lmagan versiyalarida darslarga faqat 3 ta mashqni qo'shish mumkin.**

5.1. «Mundarija» veb-sahifasini MS Word matn muharririda yaratish.

«Содержание» veb-sahifasini yaratishda MS Word matn muharririning ishlatilishi har qanday o'quv materiallari uchun eng sodda tashkil etish usullaridan hisoblanadi, jumladan Hot Potatoes dasturi yordamida tayyorlangan topshiriqlar uchun ham. Bunday sahifalarda yangi fayl va topshiriqlarga ilovalarni qo'shish yengil bolib, mashqlarning bajarilishi tartibi ketma-ket yoki ixtiyoriy bo'lishi mumkin.

Ishlarning bajarilish ketma-ketligi:

1. Bir nechta mashqlardan iborat ma'lumot faylini yarating.

«Configuration file» (Файл конфигурации) darchasida mashqlar navigatsiyasi (Navigation)ni rostlashda navigatsiya tugmachalari va ularning (Captions) belgilarini ishlatishga nishonlar o'rnatilmaydi.

«Include “Next Exercise” button» («Navbatdagi mashq - belgilanishi «Next» (Далее) yoki ko`rsatkich oldinga tugmachalaridan foydalanish);

«Include “Go to Contents” button» («Содержание» sahifasi – belgilanishi «Index» ga murojaat etish tugmachasidan foydalanish);

«Include “Back” button» («Oldingi mashqqa o`tish» – «Back» (Назад) belgisi yoki ko`rsatkich orqaga tugmachalaridan foydalanish).

The image shows a 'Navigation' dialog box with three sections, each containing a checkbox, a text field for a caption, and a text field for a URL with a 'Browse...' button.

Include	Caption	URL
☐ Include "Next Exercise" button	Caption:	Next exercise URL: <input <="" td="" type="button" value="Browse..."/>
☐ Include "Go to Contents" button	Caption:	Contents page URL: <input <="" td="" type="button" value="Browse..."/>
☐ Include "Back" button	Caption:	

2. Ma'lumotlar fayllari va mashqlarni saqlang.

3. Mashqlarning barchasini bitta papkaga nusxalang.

4. Ushbu papkada MS Word da yangi hujjat faylini yaratish va uni veb-sahifa ko`rinishida saqlash (faylni «Содержание» deb yoki darsning mavzusi yoki raqami bilan ham nomlash mumkin).


5. Faylga mashqlar ro`yxatini chop eting.

6. Mashq fayllariga ilovalar kiriting. (Ilovalarni yaratish uchun avval mashq nomini belgilab, so`ngra «Добавление гиперссылки» tugmachasini «Стандартная» uskunalar panelida bosish yoki «Вставка» menyusida «Гиперссылка» punktini tanlash orqali).

7. Faylni saqlang va matn muharriridan chiqing.


Mashqlarning bajarilishi

1. Dars mashqlari va mundarijasi sahifa saqlanayotgan papkani oching.



2. Dars mundarijasi faylini oching.

Ixtiyoriy mashqqa chiqish gipermurojaat orqali amalga oshiriladi (Buning uchun sichqonchanning chap tugmachasi mashqning nomi ustida ikki marta chertiladi). Mashqdan mashqqa o'tish - veb-brouzerning «Назад» va «Вперед» tugmachalari orqali amalga oshiriladi.



5.2. Keyingi mashqqa o'tishni navigatsiya sozlamalari yordamida rostdash

Mashqlarni darslarga birlashtirishda navigatsiya rostdamalaridan foydalanilganda «Содержание» sahifasi yaratilmaydi; dars mashqlariaro o'tish faqat ketma-ket ravisha amalga oshirilishi mumkin.

Ishlarning bajarilish ketma-ketligi:

1. Bir necha mashqlar uchun ma'lumotlarni kiriting (qulaylik uchun ularning nomlarining oxiriga tartib raqamlarni qo'shish mumkin).

2. «Configuration File» faylining konfiguratsiyasini rostdash oynachasida («Options» (Настройки) menyusidagi – «Configure Output» (Настройка конфигурации) punkti) navigatsiya tugmachalaridan foydalanishni sozlang. Birinchi, undan keyingi va qolgan barcha mashqlar uchun navigatsiya sozlamalari bir-biridan farq qiladi.

Birinchi mashq uchun navigatsiya sozlamasi.

Konfiguratsiya sozlamasida «Buttons» (Кнопки) ilovasini oching. «Navigation» (Навигация) blokida:


✚ «Include «Next Exercise» button» –«Далее» tugmachasidan foydalanish belgisini o'rnatish;

✚ keyingi mashq fayl nomini «Next exercise URL» (mashqning keyingi faylini joylashtirish) maydonchasiga chiqaring – uni «Browse» (Обзор) tugmachasi yordamida ham qo'yish mumkin (bu tugmacha bosilgandan so'ng


«Open file» dialog oynasida kerakli fayl nomi tanlanib, «Open» tugmachasi bosiladi – shundan so`ng fayl nomi maydonchada hosil bo`ladi);

✚ «Include “Go to Contents” button» – «Содержание» sahifasiga murojaat belgisini olib tashlang;

✚ «Include “Back” button» – «Назад» tugmachasidan foydalanish belgisini olib tashlang.



Birinchi mashq uchun navigatsiya panelida faqat «Далее» tugmachasi bo`ladi:



Ikkinchi va undan keyingi mashqlar uchun navigatsiya sozlamalari.

Buning uchun dastlab konfiguratsiya sozlamasida «Buttons» (Кнопки) ilovasini oching va «Navigation» (Переходы) blokida quyidagi amallarni bajarish lozim:


✚ «Include “Next Exercise” button» – «Далее» tugmachasidan foydalanish belgisini o`rnatish;

✚ keyingi mashq fayl nomini yoki qo`lda yozib, yoki «Browse» (Обзор) tugmachasidan foydalanib chiqaring;

✚ «Include “Go to Contents” button» – «Содержание» sahifasiga murojaat qilish belgisini o`rnatish;

✚ «Include “Back” button» – «Назад» tugmachasidan foydalanish belgisini olib tashlash.

Shu singari sozlamalar oxirgisidan tashqari boshqa barcha mashqlar uchun takrorlanadi.



Ikkinchi va undan keyingi mashqlar uchun «Далее» va «Назад» tugmachalari bo`ladi.




Oxirgi mashqda o`tishlarni sozlash.

Dastlab konfiguratsiya sozlamasida «Buttons» (Кнопки) ilovasini oching va «Navigation» (Переходы) blokida quyidagi amallarni bajarish tavsiya etiladi:

✚ «Include “Next Exercise” button» – «Далее» tugmachasidan foydalanish belgisini olib tashlang;

✚ «Include “Go to Contents” button» – «Содержание» sahifasiga murojaat qilish belgisini olib tashlang;

✚ «Include “Back” button» – «Назад» tugmachasidan foydalanish belgisini o`rnating.



3. Mashq va ma'lumotlar fayllarini saqlash.

Mashqlarni bajarish:

1. Mashq fayllarini alohida papkaga nusxalang.
2. Birinchi mashq faylini oching, mashqdan mashqqa o`tish uchun mashqlarning navigatsiya panelida joylashgan «Далее» va «Назад» tugmachalaridan va/yoki Internet browserning navigatsiya tugmachalaridan foydalaning.


5.3. «The Masher» (Инструменты) dasturlari bloki yordamida mashqlarni darslarga avtomatik birlashtirish

«Инструменты» dasturlar bloki yordamida mashqlarni darslarga birlashtirishda quyidagi amallar avtomatik ravishda bajariladi:

- ✚ Ilovali darslar uchun mashqlarga «Содержание» veb-sahifasi yaratiladi;
- ✚ Darsning hamma mashqlar fayllari va «Содержание» fayli bitta papkaga joylashtiriladi.

Mashqlarni darslarga «Инструменты» dasturlari bloki yordamida birlashtirishda:


1. Faqat ma'lumotlar faylini yarating va uni saqlang.
2. «Masher» (Инструменты) dasturini oching.



3. «Index» (Содержание) ilovasini tanlang va dars nomini chiqaring.




4. «Files» (Файлы) ilovasida «Add files» (Добавить файлы) tugmachasi yordamida dars tarkibiga kiruvchi birlamchi ma'lumotlar fayllarini birma-bir chiqaring.




5. Darsning barcha fayllarini yagona usulda rasmiylashtirish uchun «Appearance» (Оформление) ilovasini tanlang (Xuddi shunday «Оформление» ilovasi mashqlar blokida ham mavjud), va u yerda kerakli sozlamalarni bajaring va «Use settings specified below for all files» (Использовать сделанные настройки во всех файлах) belgisini o'rnatish.

"Use settings in configuration or data files» (Использовать настройки файлов конфигурации или файлов данных) belgisi o'rnatilgan bo'lsa, u holda mashqlarda har bir ma'lumotlar faylida yoki fayl konfiguratsiyalarida amalga oshirilgan rasmiylashtirishlardan foydalanish mumkin.




6. «Buttons» (Кнопки) ilovasini tanlash va ishchi oynada «Next» «Далее», «Index» (Содержание), «Back» (Назад) kabi mashq tugmachalaridan foydalanish mumkinligini ko`rsating.

* *Hatto har bir konkret mashqqa qandaydir o`rnatishlar amalga oshirilgan bo`lsa ham, darsga birlashtirilgan mashqlar uchun dasturning ushbu blokida bajarilgan o`rnatishlar ishlaydi.*



7. «Output Folder» (Папка размещения урока) maydonchasiga dars fayllarini joylashtirish uchun papka nomini chiqarish – uni chiqarish uchun qo`lda yozish yoki «Browse» (Обзор) tugmachasidan foydalaning.

* *Bunday papkani oldindan yaratib qo`yish lozim; agar mashqlar uchun papka nomi ko`rsatilmasa, u holda mashq va mundarija fayllari ma`lumotlar fayli joylashgan papkaga joylashadi.*




8. Darsga mashq va «Index» (Содержание) sahifasini birlashtirish uchun dialog oynasi pastidagi «Build unit» (Создать урок) tugmachasini bosing. /bunga mos tugmacha uskunalar panelida mavjud yoki uni «Actions» (Действия)

menyusidagi «Build unit» (Создать урок) punktini tanlash orqali faollashtirish mumkin.



Agar dars rasmiylashtirilgan bo`lsa, «Information» (Информация):«Would you like to view the unit now?» (Вы хотели бы просмотреть урок?) dialog oynasi paydo bo`ladi – «Yes» (Да), «No» (Нет).




Bunda «Yes» (Да) tugmachasi bosilsa, ekranda yaratilgan sahifa dars mundarijasi, mashqlarga tegishli gipermurojaatlari bilan birgalikda paydo bo`ladi:

9. Dars faylini saqlang (jimjitlikda u project deb nomlanadi, lekin uni ixtiyoriy boshqa nom masalan, dars yoki shu singari nomlar bilan belgilash mumkin). Dars faylini dars masqlari ma'lumot fayllari joylashgan papkada saqlash qulaydir

Имя	Тип
jcloze1	HotPotJClozeFile
jcross2	HotPotJCrossFile
jmix3	HotPotJMixFile
урок 1	Masher file


Mashqlarni bajarish

1. Dars saqlanadigan joyni ko'rsatuvchi papkani oching, unda mashqlar fayli va mundariija (Index) fayllari joylashadi:




2. «Index» (Содержание) faylini oching va ishni boshlang.

Mashqlar ketma-ket yoki ixtiyoriy tartibda bajariladi. Bajarilgan sozlashlarga bog'liq holda fayldan faylga o'tkazish veb – browser tugmachasi, mashqlarda o'tkazish tugmachasi, «Содержание» sahifasidagi havola yordamida amalga oshiriladi.



Navigatsiya panelida har bir mashqqa «Содержание» tugmachasi kiritiladi:



5.4. «Mundarija» sahifasini «The Masher» (Инструменты) dasturlar bloki yordamida avtomatik yaratish

Agar nafaqat ma'lumotlar fayli, balki mashqlar ham yaratilgan bo'lsa, u holda «The Masher» (Инструменты) dasturlar bloki yordamida ular uchun «Содержание» sahifasini avtomatik ravishda yaratish mumkin.

Ishlarning bajarilish ketma-ketligi:

1. Mashqni yarating.
2. Mashqni alohida papkaga ko'chiring.
3. «The Masher» (Инструменты) dasturlar blokini ishga tushiring.
4. Darsning ma'lumot fayllari ro'yxatini chiqaring (5.4.-bo'limning 4-punktiga qarang).

5. «Содержание» sahifasini papkaga joylashtirish uchun uning nomini «Output Folder» maydonchasiga qo'lda yozish orqali yoki «Browse» (Обзор) tugmachasi yordamida chiqaring. Bu papka mashqlar saqlangan papkadir.

6. Mundarija sahifasini yaratish uchun «Actions» (Действия) menyusidagi «Build index page only» (Создать только страницу Содержание») tugmachasi yoki asboblari panelidagi mos tugmachalardan foydalaning.

Shundan so'ng ushbu jarayon xuddi «Содержание» sahifasi kabi yaratiladi va bu darsni tomosha qilishni boshlash mumkin.

7. Dars faylini saqlang. (uni ham darsning ma'lumot fayllari joylashgan papkada saqlash maqsadga muvofiq).

6. Qo'shimcha ma'lumot

6.1. «Help» (Справка) bo'limi.

«Справка» bo'limida qo'shimcha ma'lumot quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ✚ dasturni o'rnatishning o'ziga xos xususiyati (Installing and uninstalling – What is installed with a program?);

- ✚ ob'ekt mashqlari, tovush, grafika, video va giperhavolalarni ulash bo'yicha ko'rsatmalar (General Introduction and help);

- ✚ 6.0. versiyasining (o'zidan oldingi versiyalari bilan taqqoslaganda) yangi imkoniyatlari (General Introduction and help);

- ✚ malakali foydalanuvchilar amalga oshiruvchi qo'shimcha imkoniyatlar (For Power-users);

- ✚ hotpotatoes.net sayti xizmatlari (General Introduction and help – The hotpotatoes.net hosting service)\$

- ✚ tez-tez beriluvchi savollar (Frequently asked questions);

- ✚ mualliflar, dasturning turli versiyalarini ishlab chiqishda ishtirok etganlar, interfeys tarjimonlari va shular haqida ma'lumotlar (Support and credits)\$

- ✚ dastur saytidagi qo'shimcha ma'lumot (Support and credits – Feedback and support).

6.2. Dastur veb-sayti.

Dastur veb-sayti manzili <http://web.uvic.ca/hrd/hotpot/>

Saytda qo'shimcha ma'lumotlar quyidagi bo'limlarda joylashgan:

- ✚ tez - tez beriluvchi savollar (FAQ);

- ✚ dastur foydalanuvchilari uchun forum (Support);

- ✚ o'quv materiallari (Tutorial) – turli tillarda – ingliz, nemis, polyak, eston, fin, daniya, italiyan, turk, xitoy va yapon tillarida dastur bilan ishlash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, o'quv qo'llanmalar va ma'lumotnoma materiallari (Tutorial);

- ✚ Hot Potatoes (Hot Pot sites) dasturi yordamida yaratilgan har xil tillardagi turli predmetlar bo'yicha topshiriqlar veb-saytiga havolalar

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Зайцева Л.В., Прокофьева Н.О. Проблемы компьютерного контроля знаний // Proceedings. IEEE International Conference on Advanced Learning Technologies (ICALT 2002). 9-12 September 2002. Kazan, Tatrstan, Russia, 2002, – p. 102 - 106.
2. Сеница Е.М., Бурцев М.С. Описание учебных ресурсов: метаданные, стандарты, профили // Образовательные технологии и общество. – 2006. - том 9 - №1. – с. 365 – 396.
3. Башмаков А.И., Башмаков И.А. Разработка компьютерных учебников и обучающих систем. - М.: Информационно-издательский дом "Филин", 2003. - 616 с.
4. Бовтенко М.А. Методические материалы к курсу «Компьютерная лингводидактика». Рекомендации по созданию интерактивных упражнений с помощью универсальной программы-оболочки «Hot Potatoes» (Версия 6.0. 1998 - 2003) (для начинающих пользователей). – Новосибирск, 2004.

MUNDARIJA

Kirish.....	4
1. Dastur haqida umumiy ma'lumotlar.....	5
1.1. Dastur haqida.....	5
1.2. Dastur mualliflari.....	5
1.3. Dasturning asosiy bo'limlari.....	5
1.4. Dasturdan foydalanish shartlari.....	6
1.5. Texnik va dasturiy talablar.....	6
1.6. Dasturni o'rnatish.....	7
1.7. Dasturni ro'yxatga olish.....	8
1.8. Dastur bilan ishlash bo'yicha interaktiv darslik.....	9
1.9. Turli tillarning ishlatilishi (Turli tillardan foydalanish).....	10
2. Mashqlarni yaratish.....	13
Asosiy bosqichlar.....	13
Uskunalar panelidagi tugmalarning vazifalari.....	13
2.1. Ma'lumotlarni kiritish.....	14
2.2. Konfiguratsiyani sozlash.....	16
Topshiriqlarni rasmiylashtirish.....	17
Taymerni sozlash.	18
2.3. Mashqlar veb-sahifasiga ma'lumotlarni aks ettirish	18
2.4. Ma'lumotlarni dastlabki faylini saqlash.....	20
2.5. Mashqlarni chop etish.....	21
2.6. Mashqlarni darslar va mavzuiy bo'limlarga birlashtirish.....	22
3. Mashqlar yaratish bo'yicha tavsiyalar (matnli materiallar asosida)...	23
3.1. Viktorina (JQuiz).....	23
3.2. Bo'shliqlarni to'ldirish (JCloze).....	29
3.3. Moslikni o'rnatish(JMatch).....	36
3.4. Krossvord (JCross).....	43
3.5. Ketma-ketlikni tiklash (JMix).....	49
3.6. Mashqlarga matnni qo'shish.....	54
3.7. Ekran klaviaturasi.....	56
4. Ma'lumot va mashqlar fayllarini joylashtirish.....	57
5. Dars yoki tematik blokda mashqlarni birlashtirish.....	58
5.1. «Mundarija» veb-sahifasini MS Word matn muharririda yaratish....	58
5.2. Navigatsiya sozlamalari yordamida keyingi mashqqa o'tish.....	60
5.3. «The Masher» dasturlari bloki yordamida mashqlarni darslarga avtomatik birlashtirish.....	63
5.4. «Mundarija» sahifasini «The Masher» dasturlar bloki yordamida avtomatik yaratish.....	68
6. Qo'shimcha ma'lumot.....	69
6.1. «Help» (Справка) bo'limi.....	69
6.2. Dastur veb-sayti.....	69
Foydalanilgan adabiyotlar.....	70

O. Xatamov, M. Zaripova

Hot Potatoes dasturi yordamida interaktiv mashqlar yaratish

(uslubiy qo'llanma)

Ma`sul muharrir:	Ch.B. Normurodov
Texnik muharir:	J. Shaymatov
Musahhih:	M. Begimqulova

Terishga _____ yilda berildi. Bosishga _____ yilda ruxsat etildi. Bichimi
_____ Ofset qog'ozi. Ofset usulda chop etildi. Shartli bosma tabog'i _____.
Buyurtma № _____. Nusxasi _____.

“Poligraf – Nashr” MCHJ kompyuterida terildi, sahifalandi va chop etildi.

Termiz shahri, F. Xo'jaev ko'chasi, 30-uy.